

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

O'ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

**4-BOSQICH "G" GURUH BITIRUVCHISI
O'RINBOYEVA GULMIRANING**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: MAKTABDA CHO'LPON SHE'RIYATINI O'RGANISH

Ilmiy rahbar: dotsent Lazokat Jalolova.

ANDIJON - 2011

M U N D A R I J A

KIRISH	3-bet
---------------------	--------------

I BOB. Cho'lponning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni.

1.1 Cho'lpon ijodiga bir nazar.	6-bet
1.2. Cho'lpon lirikasining o'ziga xos xususiyatlari.	13-bet
1.3. Cho'lpon ijodini o'rganishning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati.....	18-bet

II BOB. Maktab adabiy ta'limida Cho'lpon ijodini amaliy jihatdan o'rganish.

2.1. Maktab adabiy ta'limida Cho'lpon she'riyatining berilishi.	21-bet
2.2. 7-sinflarda Cho'lpon she'riy asarlarini o'qitish.	27-bet
2.3. 9-sinflarda Cho'lpon ijodini o'rganishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.	41-bet

XULOSA.	62-bet
---------------------	---------------

ADABIYOTLAR RO'YHATI.	65-bet
-----------------------------------	---------------

KIRISH

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Har qanday jamiyatning taqdirini unda yashaydigan insonlar belgilaydi. Jamiyatni nurli kelajak sari yetaklash ham, tubanlik qariga tortish ham odamning qo'lida. Shuning uchun ham jamiyat a'zolari, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy kamoloti bugungi kunda o'ta dolzarb masalaga aylangan.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi ham odam omilining hal qiluvchi ahamiyat kasb etganidan dalolatdir.

Bu hujjatlar faqat mutaxassis tayyorlashga emas, balki sog'lom ma'naviyatli odam shakllantirishga xizmat qila boshladi.

Adabiyot o'quv fani sifatida insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishga eng ko'p va samarali ta'sir ko'rsatuvchi san'at turidir. U inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, tafakkuri, ma'naviy dunyosoni boyitishda eng kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyot o'qitishning bosh yo'nalishi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilar ongiga badiiy asarning mo'jizakor ta'sir kuchini amaliy jihatdan ya'minlashga qaratilgan.

Maktabda Cho'lpon she'riyatini o'rganishda, Vatanga muhabbat, erkinlik va ozodlik tushunchalarini berishda, inson ma'naviy ruhiyatini kamol topishida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning muhim o'rin tutishi amaliyotda o'z isbotini topmoqda. Zero, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarni muayyan badiiy asarda ilgari surilgan g'oyalar mohiyati bo'yicha mustaqil fikr yuritish, badiiy asarni anglab olish yo'llarini topa bilish, badiiy talqinda ifoda etilgan ijtimoiy munosabatlar jarayonida bilvosita ishtirok etish asosida mustaqil hayotga tayyorlash imkonini beradi.

Bugungi kunda intellektual salohiyatli shaxsni tarbiyalash dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Bunday shaxsni tarbiyalash esa, avvalo, maktabga-o'qituvchilar zimmasiga tushadi.

Darsda ijodkorni, xususan, Cho'lponni badiiy mahoratini o'rgatishda, uning badiiy asarlarining tahlili orqali o'quvchilarni bilim saviyasini oshirish, fikrlash qobiliyatini kengaytirish, hayotga mustaqil yondosha olishga o'rgatish va ularni o'quvchilarga qanday yetkaza olish, qiziqтира bilishda o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Cho'lpon ijodiga qiziqtiribgina qolmay, asarlarini, xususan, she'riyatini ijodiy jarayon sifatida zavq bilan o'rganishga, qabul qilishga o'rgatish dolzarb masala hisoblanadi.

Ishning maqsad va vazifalari. Mazkur malakaviy ishning bosh maqsadi, adabiyotga muhabbat uyg'otish, Cho'lpon ijodi, xususan, she'riyatiga oshno etish, shu orqali kitobxon o'quvchi tarbiyalash va mustaqil fikrini og'zaki va yozma tarzda qiylanmay ifodalaydigan,

ma'naviyatini shakllantirishda ilmiy-metodik yondasha olishdir. Ushbu maqsadni yuzaga chiqarishda quyidagi vazifalarni hal etish zarur bo'ladi:

-umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ahamiyati, Cho'lponning o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini tadqiq qilish;

-darslik va dasturlarda Cho'lpon she'riyatining berilgan holatini o'rganish va tavsiflash;

-Cho'lpon ijodini o'qitishda innovatsion texnologiya, metod va usullarni tizimli belgilash;

-Cho'lpon ijodini o'rganishdagi pedagoglarning ilg'or metodlarini qiyosiy o'rganish, tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti. Umumta'lim maktablari adabiy ta'lim mashg'ulotlarida Cho'lpon ijodini, badiiy mahoratini o'rgatish jarayoni, darslik, qo'llanma, uslubiy tavsiyalar.

Ishning ilmiy yangiligi. Tadqiqot nazariy jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, amaliy jihatdan ilk marta bitiruv malakaviy ish hajmida amalga oshirilayotganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati.

-ilmiy izlanishdan olingan natijalar Cho'lpon she'riyatini o'qitish borasidagi qarashlarni boyitadi;

- Cho'lpon badiiy mahoratini o'qitishning ilg'or metodlari o'rganiladi, tahlil qilinadi, xulosalar chiqariladi;

-Cho'lpon ijodini maqbul usullari ishlab chiqiladi, tajribalar to'planadi va ortadi;

-tadqiqotda bayon qilingan qarashlarga tayanib, Cho'lpon ijodi, xususan, she'riyatini o'qitishning ilg'or usullaridan darslarda foydalanish mumkin.

Ishning joriylanishi. BMI ish mavzusi Andijon davlat universiteti filologiya kafedrasining yig'ilishida tasdiqlangan, ish ichki himoyada muhokama etilgan va ochiq himoyaga tavsiya qilingan.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, olti qism, xulosa va adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I BOB. Cho'lponning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni.

Inson ma'naviyatini shakllantirish, e'tiqodini qaror toptirishda adabiyot darslarining o'rni beqiyos. Chunki adabiyot san'atning bir turi bo'lib, u ixlosmandining tafakkuriga uning qalbi orqali ta'sir ko'rsatadi, qalbi bilan anglaganini esa hissiyoti yordamida tabiatiga singdirib olishiga xizmat qiladi.

Adabiyot-komil inson tarbiyachisi. Boshqa o'quv mashg'ulotlarida bilim berish ustuvor bo'lsa, adabiyotda insonning ko'ngli bilan, tuyg'ulari bilan ishlanadi. Chunki chinakam insonlikning asosiy belgisi boshqa odamlarning holatini tushunish, ularga tuyg'udosh bo'la bilishdan iboratdir. Shu ma'noda, olamdagi biror san'at turi, biror o'quv predmeti adabiyotning o'rnini bosa olmaydi. Badiiy adabiyot o'quvchilarning hissiyotlarini shakllantirib, tuyg'ularini noziklashtirib, kechinmalarini teranlashtiradi. Adabiyotning ayni vazifasi shu- da!..

Gap shundaki, hayot tashvishlari, tirikchilik yugur-yugurlari kishi bolasining tuyg'ularini asta-sekin jonsizlantira boshlaydi. Kishining tuyg'ulari jonsiz bo'lsa, u sog'inmaydi, sevmaydi, hayratlanmaydi, bora-bora jism bandasiga, ya'ni faqat ishlab, yeb-ichib, uxlaydigan kimsaga aylanadi. Bir-ikki kimsa emas, butun bir jamiyatning shunday bandalaridan iborat bo'lishini tasavvur qilib ko'ring-chi?! Bu jamiyat manqurtlar jamiyati kabi xatarli bo'ladi. Adabiyot, yaxshi asarlar anashunday jamiyat yaralishiga yo'l qo'ymaydi, o'quvchining tuyg'ularini charxlab, ongini uyg'otib turadi, uning mudrashiga yo'l qo'ymaydi. Shu ma'noda adabiyotning xizmatlari ulug'.

Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Shu bois, adabiyot tabora shaxs adabiyoti bo'lib bormoqda. U alohida insonni – shaxsni tadqiq etishga tutunmoqda. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari deb ta'riflanishi bejiz emas albatta¹.

Har bir ijodkor adabiyot olamiga qadam qo'yar ekan, avvalo, adabiyot nima? degan muammoga ro'para keladi va unga javob izlaydi. Bu muhim masalaga necha davrlardan beri Sharqda ham, G'arbda ham buyuk iste'dod sohiblari javob izlab ancha urunishgan va bunga bir qancha ta'riflar berilgan.

Abdurahmon Sa'diy "Adabiyot nimadir?" maqolasida: "Adabiyot so'zi arab tilidan olingan bo'lib "Adab" moddasidandir. "Adab" so'zi esa tarbiyalilik, noziklik, go'zal qiliq, boshqalar bilan yaxshi, ko'rkam munosabatda, yaxshi muomalada bo'lmoq ma'nolarini ichiga oladi. Adabiyot odamlarning tabiatiga, fikr va hislariga tarbiyalilik, noziklik va chiroylilik berguvchi narsalardir"²

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat" 2008. 9-bet.

² Sharq mumtoz poetikasi. Majmua.T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". 2006, 73-bet

Abdurauf Fitrat esa “Adabiyot qoidalari” darsligida adabiyotga shunday ta’rif beradi: “adabiyot-fikr, tuyg’ularimizdagi to’lqunlarni so’zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham huddi shu to’lqunlarni yaratmoqdur. Shul bilan yozilg’an asarlarga adabiy asar deyiladi”.¹

Taniqli qozoq jurnalisti, ma’rifatparvar M.Seralin yozadi: “Til va adabiyot xalqning qalbi va ruhidir...adabiyotsiz xalq zabonsiz boladay gap. Bunday bola boshqalarga o’zining dard-u quvonchlarini gapirib bera olmaydi. Xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan eng kuchli vosita til va adabiyotdir”.²

Cho’lpon o’zining “Adabiyot nadur?” maqolasida birinchi navbatda, adabiyotning ijtimoiy mohiyati to’g’risida fikr yuritadi: “Ha, to’xtamasdan harakat qilib turg’on vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo’lsa, maishat yo’lida har-xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shu qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa- millat yashar. Adabiyoti o’lmag’an va adabiyotining taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o’ydin, fikrdan mahrum qolib sekin-sekin inqiroz bo’lur”.

Cho’lpon bu maqolasida adabiyotning mohiyati, jamiyat hayotidagi, millat ravnaqidagi ahamiyati to’g’risida fikr yuritdi. Adabiyot quruq g’oyalar majmuasi emas, balki birinchi navbatda, inson ruhiyati bilan bog’liq bo’lgan hodisadir. U odamlarning shuurigagina emas, his-tuyg’ulariga ham ta’sir etishi, ularni quvontirib, yohud mahzun ahvolga solib, shu orqali ijtimoiy burchini o’tashga xizmat qiladi. Inson ma’naviyatini shakllantirish, e’tiqodini qaror toptirishda esa adabiyot darslarining o’rni beqiyosdir. Chunki adabiyot san’atning bir turi bo’lib, u ihlosmandining tafakkuriga uning qalbi orqali ta’sir ko’rsatadi, qalbi bilan anglaganini esa hissiyoti yordamida tabiatiga singdirib olishiga xizmat qiladi.

Adabiyot darslarida millatga xos himmat, muruvvat, sahovat, mehr-muhabbat kabi tuyg’ular o’quvchilar ongida shakllanadi.

Yuqorida aytib o’tganimizdek, inson tarbiyasi hissiyotlar namoyishida ko’zga ko’rinadi. O’zgalarni tushunish, dardiga sherik bo’lish hissiy tuyg’ular orqali amalga oshadi. Farzand tarbiyasida uning ruhiyatini tarbiyalash har qanday salbiy va ijobiy holatlarda o’zini aql bilan boshqara olishiga o’rgatish ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalash yo’lidagi vazifalaridan biridir. Bolada yuqori darajadagi emotsional madaniyatni tarbiyalashda san’atning har qanday turi, xususan, badiiy adabiyot eng kuchli vosita hisoblanadi. Asar tahlili jarayonida “uning ruhiga singish”, “qahramonlar bilan birga yashash” kabi iboralar ishlatiladi. Asar qahramonlarining hayoti, undagi ijobiy, salbiy holatlar kitobxonda mutolaa jarayonida emotsiya uyg’otadi. Voqea yakuniga kelgunicha o’quvchi ruhiyatida turli holatni kuzatish mumkin. Bu dunyoqarashning

¹ Sharq mumtoz poetikasi.Majmua. T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”,2006.71-bet.

² Sharafiddinov.O. Istiqolol fidoyilari. T.: “Sharq”,1993. 46-bet.

shakllanishi, tasavvurning boyishi, tafakkurning tiniqlashishiga olib boradi. Vatan taqdiri uchun javobgarlik tuyg'usi tarbiyalanadi va kamol topadi.

O'quvchilarga ta'lim berishdan asosiy maqsad – ular ongiga fan asoslarini puxta singdirish orqali diyonatli, e'tiqodli qilib o'stirish, ijtimoiy hayotdagi har bir hodisaga ongli yondoshishni tarbiyalash, egallagan bilim va ko'nikmalarini hayotga tadbiq etish qobiliyatini o'stirishdir. Bu jihatdan ham adabiyot darsi yosh avlodni jamiyatimiz olg'a surayotgan yuksak g'oyalar ruhida tarbiyalash vositasi hisoblanadi. Adabiyotning jamiyat a'zolari, ayniqsa yoshlar tarbiyasidagi o'rni va

ahamiyati Prezident I.A.Karimovning ko'plab nutq va chiqishlarida juda yaxshi ko'rsatib berilgan.

O'quvchilarning ijtimoiy– estetik ongini, ularning dunyoqarashini shakllantirishda, o'quvchilarning vatanparvarlik, axloqiy-ma'naviy, badiiy-estetik tarbiyasida, yuksak insoniy fazilatlarni egallashlarida adabiyot beqiyos o'rin tutadi. Adabiyot fani o'quvchilarning boshqa fanlarni puxta o'zlashtirishlariga ham katta imkoniyatlar yaratadi.

Badiiy adabiyot ta'lim bosqichlarida ham san'atning bir turi, ham o'quv predmeti sifatida o'rganiladi. Shunga ko'ra o'quvchilar badiiy adabiyotning so'z san'ati sifatida o'ziga xosliklari, uning yashash tarzi, namoyon bo'lish shakllari, rivojlanish qonuniyatlari ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'rgatiladi.¹

Adabiyot fani o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirishning eng qulay, ta'sirchan va samarali vositalarida biridir.

Badiiy asarni o'qish va uni tahlil qilish bevosita nutqiy jarayondir. Shuning uchun ham unda manashu jarayonni o'quvchilarga yetkazish imkoniyati beqiyos. Ushbu imkoniyatlardan foydalanish, ularni bor ko'lami bilan yuzaga chiqarish esa faqat o'quvchining o'ziga emas balki adabiyot o'qituvchisining shaxsiy fazilatlarga, undagi pedagogik mahoratning darajasiga ham bog'liq.

Ijodkor o'z asarlarini yaratarkan, uning markazidagi inson qiyofasida, obraz ruhiy olami tasvirida hamohang xususiyatlar tuyg'u va kechinmalarni ifoda etishi tabiiy.

Adabiy ta'limda shoir ijodini o'rganish vositasida uning shaxslik sifati bilan yaratuvchi ijodkorga xos qiyofasini o'quvchi ko'z o'ngida jonlantirish orqali namuna tarbiyasiga e'tibor qaratilgan.

Asrimizning birinchi choragida Turkiston xalqlari milliy uyg'anishi boshida turgan ulkan iste'dodlar yetishib chiqdi. Ular safida g'oyat nozik talant sohibi Abdulla Qodiriy yozganidek "Navoiydan keyin chiqqan o'zbek shoirlari ichida eng kuchli lirik shoir" Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ham bor edi. Abdulhamid Cho'lpon 20-30- yillarda o'ziga xos ijodi bilan yangi

¹ .9-sinf uchun adabiyot fanidan Davlat ta'lim standarti. Til va adabiyot ta'limi.2009. 9-son.

davr o'zbek she'riyatini boshlab berdi. U o'zbek she'riyatida tong yulduzi kabi porloq iz qoldirgan iste'dod sohibidir. U yangi davr adabiyotiga har jihatdan xalqchilik ruhini bag'ishlagan ijodkordir. Shoir ijodining navqiron yillari xalq, millat taqdiri hal bo'layotgan suronli yillarga to'g'ri keldi. Shuning uchun she'rlarining kattagina qismini ijtimoiy- siyosiy she'rlar tashkil qiladi.

Taniqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinovning quyidagi fikrlarida shoir talantiga yuqori, lekin xolis baho berilgan: "Uning shoirona qalbi olamni juda nozik his qilar, barcha murakkabliklarga, jamiki alg'ov-dalg'ovlarga, shurish-u po'rtanalari ga, kulfat-u mushkulotlarga o'zi xos tarzda aks sado berardi. Uning o'tkir nigohi inson ruhiyatining eng o'zlas puchmoqlarigacha yetib boror, teran tafakkuri esa turfa xil hodisalar qatidan harakat nuqtalarini kashf qilardi. Cho'lpon mahorati shuncha- lar yuksak ediki, u qalamning bir yengil harakati bilan so'z lashkarini istagan izmi- ga sola bilardi"

Abdulhamid Cho'lpon 1897-yilda Andijonning Qatortarak mahallasida dunyoga keldi. Onasi Oyisha aya, otasi Sulaymonqul Yunus o'g'li dehqonchilik, hunarmandchilik, keyinchalik bazzozlik bilan shug'illangan ziyoli kishi edi.

Zamondoshlarining so'zlariga, og'zaki ma'lumotiga qaraganda, Cho'lpon 1898- yilda tug'ilgan deyiladi. Buni shoirning singlisi Foiqa aya va muchaldosh hamshahar-

hari Ulfat ham tasdiqlagan. Lekin bu ma'lumotlarning hammasi og'zaki maqomga ega. Hujjatlarda esa 1897- yil hozir ilm tamonidan qabul qilingan. Qomusiy adabi-yot va 1937-1938-yillardagi tergov materiallarida uning tavvalud sanasi 1897-yil deb qayd etilga va shoir shu faktning to'g'riligini imzosi bilan tasdiqlagan.

Cho'lpon avval mahallasidagi maktabda, keyin Andijon va Toshkent shaharlari-dagi madrasalarda o'qiydi. Zamoni zayli bilan Andijonda ochilgan rus- tuzem maktabida ham ta'lim oldi. Natijada Abdulhamid yoshligidanoq arab, fors, tojik, turk va rus tillarini puxta o'rgandi, badiiy adabiyotga ixlosi ortdi.

16-17 yoshlaridayoq har tamonlama chuqur bilimli, ig'or fikrli ziyoli kishi bo'lib yetishdi.

Cho'lponning ijtimoiy-siyosiy faoliyati asosan oktabr inqilobidan keyin boshlangan. U inqilobni 20 yoshida (1917) kutib oldi. Bu paytgacha Turkistonda mashxur bo'lgan Behbudiy, Aziziy, Avloniy, Munavvar qori, Fitrat asarlari hamda qarashlari bilan tanishib, o'sha paytda ko'plab chiqayotgan gazeta- jurnallarni mutolaa qilib, ma'rifatparvarlik harakatiga ixlos qo'ydi.¹

Jadidlar harakati Turkiston xalqini uyg'otishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Jadidlarning ilg'or vakillari-Behbudiy, Fitrat, Vadud Mahmud, Cho'lpon oktabr to'ntarilishidan keyin ham Turkiston xalqlari taqdirida maktab, maorif, ta'lim-tarbiya bog'liq ishlar hamon ko'ngildagidek yo'lga qo'yilgani yo'q, deb matbuotda dadil chiqib turdilar, ilmiy va badiiy

¹ Solijonov.E. Zulmatdan nur qidirganlar. T.: 2007,63-bet.

asarlar, publisistik maqolalar yozdilar. Shu jihatdan Cho'lponning "Iblis", "Rizo Tavfiqbek", Fitratning "Ittifoq etaylik", "Sho'roi islomiyatning xatosi" kabi maqolalar harakterlidir.

Jadidlarning kun tartibiga qo'ygan masalalari oradan salkam bir asr o'tgandan keyin, jumhuriyatimiz mustaqillik yo'lga kirgach amalga oshirila boshladi. Ta'lim-tarbiya, ilm-fan, texnika sohasida ibratli Yevropa, Amerika, Yaponiya boshqa Sharq va G'arb mamlakatlaridan o'rnak olish, yoshlarni o'sha mamlakat- larga yuborib o'qitish chora-tadbirlari amalga oshirilayotgani buning yorqin dalilidir.

"O'zimning yo'qsizligimdan biroz so'zlab o'tayin: Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o'qiyman bir xil, bir xil, bir xil. Ko'ngil boshqa narsa-yangilik qidirar. Botu, G'ayratiy, Oltoy, Oybek, Julqunboy larni o'qiyman, quvontiradir, xolos!".¹

Cho'lpon bu gaplarni o'zgacha bo'lgan adabiyotni kamsitish uchun emas, balki yanada yuksak pog'onalarga ko'tarish uchun aytgan, albatta.

Qisqa muddatda yangi adabiyot shakllandi. Adabiyotga "Millat" va "Vatan" tushunchalari kirib keldi. Qodiriy, Cho'lpon va Fitratni ma'naviyat maydoniga chiqardi.

Cho'lpon "Ishtirokiyun", "Turk ROSTA", "Qizil bayroq", "Turkiston", "Buxoro axbori" gazetalarda adabiy xodim, bo'lim mudiri, mas'ul muharrir lavozimlarida ishladi. 1924-1927-yillarda Moskvada tashkil etilgan O'zbek dramstudiyasida o'z-bek tili va adabiyotidan o'qituvchilik hamda tarjimonlik qildi. Toshkentga qaytib, teatrlarda adabiy emakdosh, "Mushtum" jurnalida xodim va maorif sohasida o'qi-tuvchi bo'lib ishladi. XX- asrning 30-yillariga kelib Cho'lponning boshida qora bulutlar quyuqlashdi, ketma-ket uning ijodiy va ijtimoiy faoliyatini muhokama qilishlar, matbuotda ataylab do'pposlashlar, yig'ilishlarda kamsitishlar boshlandi, oxiri 1937-yilning 13- iyulida NKVD xodimlari tomonidan qamoqqa olinib, 1938-yilning 4-oktabr kuni otib tashlandi.

Abdulhamid Sulaymon o'g'lining ijodi 1913-1914- yillardan boshlangan. Uning ilk asarlari "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Samarqand" gazetalari, "Oyina", "Sho'ro" kabi jurnallarda bosilib turgan. Dastlab o'zini "Qalandar" deb tanitgan shoir keyinroq "Cho'lpon" taxallusini tanladi.

Cho'lpon ham shoir, ham nosir, ham dramaturg, ham tarjimon, ham publisist bo'li- shi bilan birga, munaqqid, adabiyotshunos ham bo'lgan. Uning badiiy asarlari xalq ma'naviyatini shakllantirishda muhim ro'l o'ynadi.

Bizga ma'lumki, Cho'lpon o'zbek jadidchiligining faol ishtirokchisi edi. Jadidchi -likning siyosiy, falsafiy, iqtisodiy, madaniy va adabiy g'oyalari Cho'lpon hayoti va ijodiga ham dadil kirib keldi. Fitrat Cho'lponning ustoz bo'lgan. Abdulla Qodiriy uni "Ozodlik shoiri" deb

¹ Musayeva U. Abdulhamid Cho'lpon ijodini o'rganish. Til va adabiyot ta'limi. 2001, 4-son, 16-bet.

atagandi. Cho'lpon bunday siyosiy lirikada shunday darajaga yetdiki, bu darajaga hali hech kim ko'tarila olmagan.

XX-asr avvalida davr jarohatini o'z dardi ila qabul qilgan va yurt ozodligi, uning porloq kelajagi uchun kurashgan, bu qutlug' yo'lda aziz jonlarini bergan shaxslar qatori Cho'lpon ham, adabiyotda o'zini ko'rsata oldi. U butun bir millat oldiga davr qo'ygan ulkan, kechiktirilmas muammolarni avvalo, to'g'ri idrok etgan, so'ngra asosiylarini muvaffaqiyatli hal etgan.¹

Davr shunday ediki, xalq bir tamondan ichdan yemirilgan, amirlik va xonliklar qaramog'ida ezilgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin chor Rusiyasi bosqini alamini tortayotgan edi. Ko'p o'tmay hokimiyat sho'rolar qo'lga o'tdi. Yurtning birgina maqsadi-Vatan ozodligi edi. Cho'lpon she'riyatining boshidan oxiriga qadar ozod -lik g'oyasi tarannum edi. Xalq ham moddiy, ham ma'naviy qashshoq bo'lib, uni tubdan ko'tarishning asosiy yo'li ma'rifat edi.

Cho'lpon she'riyatida yana bir dard-xalqni ma'naviyatga, maorifga chorlov tug'ildi. Cho'lpon she'riyati siyosiy she'riyat bo'lib jarangladi.²

"20-yillarda Cho'lponning 3 ta she'riy to'plami bosilgan. Bular –"Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari" (1926). Mubolag'asiz aytish mumkinki, o'sha davr adabiy hayotida katta adabiy hodisa bo'lgan bu to'plamlar yangi o'zbek she'riyati uchun tom ma'noda poydevor bo'ldi", deb yozadi professor Ozod Shara-fiddinov.

Cho'lponning bu to'plamlarga kirgan she'rlari ulkan ijtimoiy dardlarni, yurt ozod- ligi masalasini jo qilgani bilan, yuksak badiiy saviyaga egaligi bilan ajralib turadi.

Oybek "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1927-yil 17-may sonida Ayn (Olim Shara fiddinov) ga javoban yozgan maqolasida: "Cho'lpon yangi adabiyotida yangi narsalar yaratdi. Muvashshah adabiyot o'rniga bu kunning badiiy zavqig'a yarasha yoqimli, go'zal she'rlar o'rtag'a chiqardi. Bugungi yosh nasl uning sodda tilini, totli uslubini, texnikasini ko'p sevadi, undan ko'p go'zalliklar oladi",-deya yozgan edi.³

Qator tillarni yaxshi bilgan Cho'lpon yigirmanchi yillarda Blok, Pushkin, Tolstoy, Gorkiy, Tavfiq, Fitrat, Yahyo Kamol, Tagor, Shekspir asarlarini uzluksiz mutolaa qildi, ushbu ijodkorlarning mahorat sirlarini o'rganib, badiiyligi yuksak bo'lgan asarlarni adabiyotimizga tuhfa etdi.

Cho'lpon she'riyatiga xos tasvir rang-barangligi, badiiy vositalariga, obrazli ifoda -larga boyligi, hayotiy voqelik va kechinmalarning nozik tuyg'ular vositasida berilishi, tilining sodda va ravonligi bilan jozibadorlik beradi.

¹ Hamdamov.U. Badiiy tafakkur tadriji. T.: "Yangi asr avlodi", 2002.19-bet.

² Hamdamov.U. O'sha asar. 20-bet.

³ Oybek. Cho'lpon.Shoirni qanday anglash kerak? "Sharq yulduzi". 1989. 6-son, 189-bet.

20- yillar o'zbek she'riyati uchun an'anaviy bo'lgan qish, ko'klam, sharq, g'arb, yulduz, quyosh, yo'qsul, dengiz, olov, yosh kuch, kecha, tun, bahor, chechak, lola obrazlarining o'ziga xos talqinini Cho'lpon ijodida uchratamiz. Uning:

Ko'm-ko'k ekan sarg'aydilar yaproqlar og'riq,

Mag'lub, tutqun Sharqning yuzidek:

Bo'ronlarning ko'zlarikim o'ynoqlar

G'olib G'arbning qonga to'lgan ko'zidek.

misralarida qonli G'arb timsolida mustamlakachilar ifodalansa, Sharq tutqunlikka tushgan yurtning ramziga aylanadi.

Cho'lponning misralar ohangdorligini oshirish uchun assonans va alliteratsiyalari dan foydalanishdagi mahorati:

Sochilgan sochingday sochilsa siring,

Anor yuzlaringni kimga tutasan?

ifodasidagi **s** tovushi,

O'n sakkizga kirgan qishloq qizlarining yuzidek,

Qip-qizargan yuzlaringdan bir o'pich ber shaftoli!

misralaridagi "**q, k, z**" tovushlari

Lolalar dardini anglagan lola,

Lolalar tilidan qilibsan nola

tasviridagi "**l**" tovushi takrorlarida yorqin ko'zga tashlanadi.

Shoir ijodida yil fasllari, tabiat lavhalari turfa ranglari musavvirona aksini topadi. Ko'klam erkinlik, yasharish va go'zallikning timsoli sifatida talqin etilsa, qish yetim-yesirlar, yoqsunlarga qayg'u-kulfatlar olib keluvchi fasl sifatida tasvirini topgan.

Cho'lpon she'rlarida kuz va qish mustamlakachilar zulmida ezilayotgan yurt tasvi -riga yordam bersa, mustamlakachilar sovuq ellardan kelgan qarg'alar timsolida namoyon bo'ladi.

Qarg'alar bog'larda qag'lashib qoldilar,

Bilmadim, kimlarning qismati uzilur?

Yong'oqqa yopishib bir changal soldilar,

Bilmadim, kimlarning umidi yo'q bo'lur?

Cho'lponning yigirmanchi yillar boshlarida yaratgan publisistik maqola va she'r -lari bilan tanishar ekanmiz, unda xalq qalbida po'rtnaga aylanayotgan kuchning shakllanish jarayonlari hayotiy lavhalarda berilganligiga guvoh bo'lamiz. Uning "Do'xtur Muhammadyor", "Qurboni jaholat", "O'ch" kabi nasriy asarlarida real hayotning manzaralariga duch kelamiz. Cho'lpon ushbu asarlarida o'zi anglab yetmagan holda xalq qalbidagi fojiaiy lavhalarni ko'rsatdi. U o'zining adashgan inson his qildi, erk manzillariga yetishish yo'llarini qidiradi.

Yigirmanchi yillar o'zbek tanqidchiligida ta'kidlaganidek, Cho'lpon yig'loqi, ko'k dagi malaklarnigina kuylovchi shoir bo'lgan emas, u yig'layotgan xalqning dil lavhalarini o'z satrlariga ko'chiradi. U 1924-yilda yozilgan "Yanglishasiz!" nomli she'rida malomat toshlarini otguchilariga qarata shunday deydi:

Siz deysizkim, men ko'klarni o'ylaymen,
Yer betiga sira nazar solmaymen.
Yanglishasiz, men ko'klarga berkingan
Yer qizidan hayolimni olmaymen.

Cho'lpon uch to'mli she'rining birinchi to'mida ijodkorning ikki yuz qirq ikkita she'ri berilgan bo'lib, she'rlardan sakkiztasi R.Tagor, Pushkin va boshqa shoirlar- dan qilgan tarjimalaridir. Qirq to'qqiztasi aruzda, 185 tasi barmoqda yozilgan she'rlardir.¹

Shungacha mumtoz adabiyotda aruz yetakchi edi, jadidlar endi yetakchilikni bar -moqqa olib berdilar. Barmoq yetakchiligini Cho'lpon she'riyati lirikasidan ham anglashib turibdi.

Shoir lirikasi barmoq tizimining beshlikdan o'n oltilikkacha bo'lgan turkumlarni o'z ichiga oladi.

Cho'lpon 15/7, 11/9, 6/5, 15/5, 6/3, 7/5 kabi qo'shma turkumlar va ularning qo'shma vaznlarini ishlatdi. Qo'shma vaznlar sohasi bu metrika ritmining ko'p qirrali bo'lishiga olib keldi.

Rus lirikasi va dramaturgiyasida ham hizmat qilgan masal she'ri, ya'ni aralash vazn, bir asarda bir necha vaznlardan foydalanish Cho'lpon nazmida ham uchray- di. Masal she'rida, u yoki bu misrada bir-ikki turoq ortiq yoki kam bo'lishi mumkin. Aralash vaznda sodda vazn ham, qo'shma vazn ham, erkin vazn ham aralash holda kelaveradi.

Ma'lumki, aruzning hazaj va ramal bahlari mumtoz adabiyotda ko'p qo'llanilgan. Cho'lpon bu an'anani davom ettiradi, u ramalni 16 ta, hazajni 12 ta she'rda, mujtas bahri 24 marta uchraydi.

20- yillar boshida o'zbek she'r tuzilishi haqida bahs bo'lib, unda aruz va barmoq eskirdi, yangi vaznlar yaratilishi lozim,² deyila boshlandi.

Erkin she'r shunday yangi vazn namunasi deb qaraldi. Erkin vazn o'zbek xalq og'zaki poeziyasi va tonik sistemadagi metrik erkinliklardan oziqlanar edi.

Uning ikki hil yo'nalishi paydo bo'ldi. Birinchisida mazmun va ritm qonunlari asos qilib olindi- Fitrat, Cho'lpon, Hamza. Ikkinchisida mazmun va ritm qonun- lariga kam ahamiyat berildi.

¹ To'ychiyev U. Cho'lponning she'r tuzilishi. O'zbek tili va adabiyoti jurnali,1998. 2-son,17-bet.

² Muhammedova Sh. Fitrat va Cho'lpon erkin vaznning asoschilari, O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 1999. 3-son,42-bet

Ma'lumki, erkin vaznda barmoqning sodda va erkin vazni almashinib keladi. Erkin vazn she'riyati asoschilaridan esa Cho'lpondir.

Cho'lponning "Po'rtana", "Tortishuv tongi", "Buzilgan o'lkaga", "Tun", "Ishq yo'li", "Tan berdim", "Paranji", "Kuz" kabi ko'pgina she'rlari erkin vaznda ijod qilingan. Cho'lpon "Tortishuv tongi" (1920) she'rida "zahlab qolgan ko'ngillarni" yorug'likka chiqishga undaydi. She'rda erkin va sodda vazn almashib keladi, gori- zontal zinapoyalardan foydalangan:

Sizning uchun yoz boshining qoridek

Eruv kunlar keladir.

Sizning uchun olbostining zoridek

Pig'lar kunlar keladir.

Bu uch misraning uchinchisi gorizontol zinapoyaga ega, ikkinchisi yarim misradir. Birinchi misra bilan ikkinchi (qoridek-zoridek) qofiyadoshdir. Biroq ikkinchi va uchinch misralarda qofiya yo'q, qofiyaning uyushtiruvchilik vazifasini epifora (kunlar keladir) bajaradi. Cho'lponning bunday boshqa 15 ga yaqin she'rlarida erkin vaznning shunga o'x shash xususiyatlarini ko'rish mumkin.

Cho'lpon 20- yillardan 30- yillarning oxirigacha erkin vaznda ijod qildi. Demak, 20- yillarning birinchi yarmida erkin vazn shakllandi.

Xullas, she'riyatdagi vaznlar almashinuvi Fitrat, Hamza, Cho'lpon kabi shoirlar ning orzusi bilangina o'z-o'zidan va birdaniga ro'yobga chiqib qo'lgan voqea bo'lmay, jamiyatda yetilib kelgan yangi ijtimoiy-psixologik kayfiyat orqasidan sekin-asta voyaga yetgan adabiy hodisadir.

Qodiriy yozadi: "Nadomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, biz har bir yo'sin- da ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashishimiz va shunga o'xshash dostonchilik, ro'manchilik va hikoyachiliklarda ham yangilashga, xalqimizni shu zamonning "Tohir va Zuhra" lari, "Chor darvesh" lari, "Farhod- Shirin" va "Bah- romgo'r" lari bilan tanishtirishga o'zimizda majburiyat his etamiz.¹

Adib fikrini she'riyatga nisbatan olsa ham xato bo'lmaydi. Chunki yangilanish hamma sohada kechayotgan jarayondir. Axir Cho'lpon o'sha paytda "Ko'ngil boshqa narsa- yangilik qidiradir" deya yangilik topish ilinjida iztirob chekmadimi?!

Adabiyot darslarida Cho'lpon hayoti, ijodi mazmun va mohiyatan kengroq o'rganilishi tabiiy bir hol. Chunki.... **"insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan be'qiyos kuch, uning barcha qarashlari me'zoni"**² bo'lmish ma'naviyatni

¹ A.Qodiriy. O'tkan kunlar. T.: "Adabiyot va san'at", 1994. 6-bet.

² Karimov I. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat". 2008. 19-bet.

o'quvchilardan shakllantirishda adabiy ta'limning bemisl o'rni va imkoniyatlari mavjud ekan, Cho'lpon ijodi bu borada ta'limiy, tarbiyaviy jihatdan beqiyos manbadir.

Adabiyot o'qituvchisi o'z faoliyatida millatimizning ma'naviy boyliklari hisoblangan, shu xalqning o'tmish hayoti, g'ami va qayg'usi, buguni va kelajagi, ruhiyat olami va insoniy qiyofasi ifodalangan san'at va badiiyat manbalaridan foydalaniladi. Hozirgi kunda adabiyot darsliklarida keltirilgan asar va matnlarning badiiyligi yuksak. Anashu badiiylilikning zahirida millat hayoti, ruhiyati, hayot va tabiatga, insonlarga munosabati yotadi. Ularda shu millat kishisining qiyofasi, xarakter-xususiyati, milliy g'ururi, Vatanga muhabbat va iftixor kabi fazilatlar o'z ifodasini topgan. Asar mazmuniga singdirilgan, millatimiz kelajagi-yosh avlodning ma'naviy qiyofasini kamol toptirishda muhim bo'lgan mazkur sifatlarni o'quvchi qalbiga, xarakteriga ko'chirishdek mas'uliyatli ish o'qituvchi zimmasida bo'ladi. O'qituvchining vazifasi shogirdlarida o'z xalqi o'tmishiga hurmat, milliy istiqlol g'oyalariga ehtirom bilan qarashni shakllantirishdir. Adabiyot o'qituvchisida bu vazifani bajarish uchun boshqa predmet o'qituvchilaridan ko'ra har jihatdan imko- niyat ko'p.

Mustaqillik tufayli bugungi kunda maktab o'quvchilari mumtoz adabiyotning yaqin davrlarigacha o'rganilmagan namunalarini, "xalq dushmani" deya asarlari ta'qibga uchragan adiblar merosini, zamondosh yozuvchilarimiz hayoti va ijodidan ayrim lavhalarni dastur sirasida o'rganib kelmoqdalar.

Istiqlol tufayli Cho'lponning "Buyuk hizmatlari uchun" oliy mukofoti bilan taqdir- lanishi mustaqillik yillarida tarixiy adolatning tiklanganligidan dalolat beradi.

Tarixda, sho'rolar davrida mustamlakachilik siyosati, kommunistik mafkura tazyi- qi bilan Cho'lponni "xalq dushmani" qilib ko'rsatilgani, uning asarlarini o'qish, hatto nomini tilga olish taqiqlab qo'yilganligining guvohi bo'lamiz.

Holbuki, Cho'lpon buyuk san'atkor sifatida yosh ijodkorlarga ustoz bo'lgan, ular o'zlarini Cho'lponning shogirdi deb bilganlar. "Hech ikkilanmay aytish mumkin ki,- deb yozadi Ozod Sharafiddinov, 20- yillarda Cho'lpon she'rlari o'zbek poezi- yasi rivojida yangi sahifa ochdi. O'sha paytlarda adabiyot olamiga endigina qadam qo'yayotgan Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Uyg'un, Mirtemir kabi yosh shoirlar Cho'lponni o'zlariga ustoz deb bilib, etagidan mahkam tutishdi. She'riyat sirlarini egallashda, mahorat pillapoyalaridan ko'tarilishda Cho'lpon she'riyati ular uchun chinakamiga dorulfunun bo'ldi"¹

So'ngi yillardagina Sh.Turdiyev, N. Karimov, B. Do'stqorayev, M. Olimov, U. Dolimov, Z. Eshonova, D. Quronov, U. Sultonov kabi adabiyotshunoslarning harakati bilan Cho'lponning inqilobdan oldin va keyin chop etilgan asari muomalaga kira boshladi.

¹ Sharafiddinov.O. Cho'lpon. T.: "Cho'lpon", 1991.

Cho'lpon yosh avlodga, xalq ommasiga Vatanni sevish va e'zozlashni, uning go'zalliklarini his qilishni o'rgatdi. Xalqning mislsiz madaniyati, juda boy ruhiyati, bukilmas e'tiqodi va pok iymoni, mazmundor tarixi uchun iftixor qildi. Cho'lponning otashin millatparvarligi uni millat istiqboli uchun qayg'urishga undardi, shuning uchun u millat badanidagi hali o'chmagan kishan izlari haqida fig'on qilar, tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r o'lka boshiga ko'lanka tashlab turgan qora bulutlardan nafratlanar, sustlashgan yuraklarni erk uchun, insoniy qadr-qimmat uchun kurashga chorlardi. U ezilganlar va tahqirlanganlar yuragida erkka ishtiyoq tuyg'ularini uyg'otdi. Kichik maqolalaridan tortib to drama, ro'manlarigacha yuqoridagi tuyg'ular bilan to'yintirilgan.

Uning asarlarini o'rganishimizning ahamiyati katta. Jumladan, Cho'lpon 1924 yilda yozilgan "Besh yuz yil" maqolasida o'zbek adabiyotchilari ichida birinchi bo'lib Alisher Navoiyning daho san'atkor ekani to'g'risida mulohaza yuritadi. Alisher Navoiy timsolida jahon madaniyati hazinasiga juda katta hissa qo'shganini ta'kidlaydi.

Navoiy asarlarining mukammal nashrini amalga oshirish zarurligini alohida ta'kidlaydi.

Cho'lpon yetuk san'atkor sifatida aruzdan boshqa, erkin vaznlarda ham buyuk va nafis tilimiz boyligini, bu tilda eng nozik, nafis tuyg'ularni, ruhiy kechinmalarni, ma'no tovlanishlarini g'o'zal ifodalash mumkinligini isbotladi.

Cho'lpon 20- yillarning eng dolzarb muammosi bo'lgan til va imlo masalalariga ham katta e'tibor bilan qaradi. 1921- yil 20 -dekabrda Toshkentning "Turon" binosida birinchi imlo kengashi bo'lib o'tdi. O'qituvchilar, ziyolilar o'z fikrlarini bildirdilar. Cho'lpon ham "Qizil bayroq" gazetasining 1921-yil 11- yanvarida "alif" (Abdul) "he" (Hamid) imzo bilan o'z munosabatini bildirdi. Bu tabiiy, chunki til va imlo masalasini hal qilmasdan turib, xalqni savodxon qilish mumkin emasligini shoir juda yaxshi tushunar edi. U alifboni tartibga keltirish, unli va undoshlar uchun belgilar ajratish, arab va fors so'zlari yozilishiga aniqlik kiritish, unlilar sonini belgilash kabi qator muammolar bo'yicha fikrlar bildirdi. Cho'lpon va uning maslakdoshlari harflarni to'rt shakldan bir shaklga keltirish g'oyasini olg'a surdilar, bu o'lkamizda savodsizlikni bitirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'quvchilar harflarni ikki-uch hafta ichida qiynalmasdan o'rganib ola boshladilar.

Cho'lpon bundan 80 yil igari lotin yozuviga o'tishimizni bashorat qilgan edi. Shoirning bashorati ro'yobga chiqdi. Biz hozir shoir bashorat qilgan lotin yozuviga o'tdik.

Cho'lponning har bir she'ri kishini fikrlashga chorlaydi, tuyg'ularini charxlaydi. U yosh avlodga, xalq ommasiga Vatanni sevish va e'zozlashni, uning go'zalliklarini his qilishni o'rgatdi. Shoirning fikricha, Vatan "Oydan-da go'zaldir, kundan-da guzal".¹ Shoir vatan timsolini murakkab ma'nolar, fikrlar ichiga yashiradi. U davrda sho'ro hukumati mahalliy

¹ Cho'lpon. Yana oldim sozimni. T.: 1991, 381-bet.

aholini odam o'rnida ko'rmas edi. Sharq xalqlari o'z taqdiralarini o'zlari belgilash huquqiga egadirlar deb e'lon qilgan diktatura rahbarlari mahalliy xalqni aldagan, nayrangbozlik qilgan edilar. Ular xurriyatdan so'z ochgan milliy ziyolilarni shafqatsiz qirib tashlash bilan shug'ullandilar.

O'z xalqining vijdoni, or-nomusi, yuragi, tili bo'lgan buyuk shoirlar bu holga jim qarab tura olmadilar. Xuddi shu vaqtlarda Cho'lpon "Buzilgan o'lkaga" she'rini e'lon qildi. Unda vatanimiz tarixining eng og'ir davri, davlat mustaqilligidan ayrilgan paytlari yorqin tasvirlangan.

Cho'lponning barcha she'rlarida Vatan, xalq, ozodlik va erk uchun kurashni hayot mazmuni deb bilgan, yurt ozodligi yo'lida jonini tikkan shoir kechinmalari o'z ifodasini topgan. Bu tengsiz shoirning asarlari abadiylikka daxldor hodisaga aylandi va ma'naviyatimizning boyituvchi xazina bo'lib qoldi.

II – bob

Maktab adabiy ta'limida Cho'lpon ijodini amaliy jihatdan o'rganish

“Ta'lim to'g'risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Respublika Prezidentining farmoni va hukumat tomonidan keyingi vaqtda qabul qilingan qarorlar o'quv predmetlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda boshqa o'quv-metodik vositalarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Davlat ta'lim standartlari rasmiy pedagogik hujjat bo'lib, **unda muayyan dastur va darsliklarda ifodalanishi lozim bo'lgan majburiy miqdori hamda shu fan bo'yicha muayyan sinf o'quvchilari egallashlari shart bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va ma'naviy hislatlar hajmi ilmiy asoslangan holda ko'rsatiladi.**

Adabiyot bo'yicha DTS har bir sinf dastur hamda darsliklaridan o'rin olishi, o'quvchilarga taqdim etilishi lozim bo'lgan ta'lim mazmunining minimal miqdori aks etadi. Umumta'lim maktablari uchun tayyorlangan didaktik vositalarda DTS da aks etgan shu miqdorga rioya etilishi majburiy hisoblanadi. Negaki, bundan ortiqcha ta'lim mazmuni o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlariga mos kelmay, ularning ruhiy taraqqiyotiga og'irlik qilishi mumkin. Shuningdek, DTS da u yoki bu sinfni bitirish uchun o'quvchi o'zlashtirishi shart deb hisoblangan bilim, ko'nikma va malakalar ham aks etadi. Ayni vaqtda, yo'nalishli maktablar yoki iqtidorli o'quvchilar uchun tuzilgan o'quv dasturlarida bu ko'rsatkichlarining sezilarli darajada yuqori bo'lishiga yo'l qo'yiladi.

Ta'lim davlat standartlari davlat ahamiyatiga ega bo'lgan pedagogic hujjat sifatida uzoq muddatga mo'ljallab tuziladi va hukumat tomonidan tasdiqlanadi. Chunki ta'lim tizimi tayyorlaydigan kadrlar sifati qanday bo'lishi jamiyat va ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda davlat tomonidan belgilangandagina millat, dunyo bilan barobar qadam tashlaydi. O'quv dasturlari esa DTS talablari asosida yaratilib, Xalq ta'limi Vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Ma'lum muddat o'tib, mamlakat yuqorilab ketganda, ya'ni o'quvchilarning ko'pchilik qismi dastur talabiga javob bera oladigan darajaga yetganda, standart talablarini ko'tarish va millat a'zolari saviyasi, bilimdonligi darajasi o'lchovini yuksaltirish maqsadida DTS lar ishlanadi, takomillashtiriladi.

DTS o'quvchilarga ta'limning barcha bosqichlari va har qanday muassasasi (maktab, gimnaziya, litsey, kollej, oilaviy ta'lim, hususiy ta'lim, mustaqil o'qish) da adabiyot bo'yicha shaxsning shakllanishi uchun yetarli bilim egallash imkoniyatini beradi.¹

¹ 7-sinf uchun adabiyot fanidan takomillashtirilgan Davlat ta'lim standarti. Til va adabiyot ta'limi. 2007, 5-son, 17-bet.

Darsliklar bilan shug'ullanuvchi olimlar unda qaysidir darajada o'quv fanini o'qitish uslubiyati yoritilishini ta'kidlaydilar va darslik yaratish-bu o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirishdir, deb hisoblaydilar. Shuningdek, darslikda nafaqat o'quvchi, balki o'qituvchining faoliyati ham ma'lum darajada o'z aksini topgan bo'ladi. Darslikning qanchalik mukammalligi, o'quv predmetining maqsad va jarayonini loyihalashtirishdir, deb hisoblaydilar. Shuningdek, darslikda nafaqat o'quvchi, balki o'qituvchining faoliyati ham ma'lum darajada o'z aksini topgan bo'ladi. Darslikning qanchalik mukammalligi, o'quv predmetining maqsad va vazifasi qay darajada ifodalanganligi darslarning samarali bo'lishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonini tashkil etishga, hususan, darsliklar yaratishga, psixologik yondashuv bugungi ta'lim talab etayotgan **o'quvchi-darslik-o'qituvchi** munosabatidan kutilayotgan samaradorlikni ta'minlaydi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ta'lim va tarbiya har tamonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozimligi alohida uqtirilgan.¹ Dasturdagi bu muhim vazifani amalga oshirishda adabiyot fanining o'rni beqiyosdir. Chunki milliy o'zlikni anglash, Vatan ozodligi, xalq manfaatini ko'zlash, insonparvarlik, fidoiylik va shu kabi boshqa fazilatlar badiiy asarlar orqali o'quvchi shuuriga osonroq singdiriladi. Shu bilan birga badiiy adabiyot o'quvchida estetik did va nafosatni ham tarbiyalaydi.

Mustaqillik tufayli bugungi kunda maktab o'quvchilari mumtoz adabiyotning yaqin davrlarigacha o'rganilmagan namunalarini, “xalq dushmani” deya asarlari ta'qibga uchragan adiblar “meros”ini, zamondosh yozuvchilarimiz hayoti va ijodidan ayrim lavhalarni dastur sirasida o'rganib kelmoqdalar.

Tarix sahifalariga nazar tashlasak, sho'rolar davrida mustamlakachilik siyosati, kommunistik mafkura tazyiqi bilan milliy istiqlool fidoyilaridan biri bo'lgan

Cho'lponni “xalq dushmani” qilib ko'rsatilgani, uni asarlarini o'qish, hatto nomini tilga olish taqiqlab qo'yilganligining guvohi bo'lamiz.

Istiqlolimiz tufayli bunday adiblarimiz, xususan, Cho'lpon ijodi darsliklardan o'rin ola boshladi.

Adabiyot dasturida Abdulhamid Sulaymon o'g'li Co'lpon hayoti va ijodi umumta'lim maktablarining 7-11- sinflarida o'rganish rejalashtirilgan.

1997 yil “O'qituvchi” nashriyotida N. Karimov boshchiligidagi tuzilgan 11- sinf uchun adabiyot darsligida Co'lponning “Adabiyot nadur?”, “O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasining 1937- yil 7-8- aprelida bo'lib o'tgan yig'ilishida so'zlagan nutq”i hamda “Kecha va Kunduz” romanidan parcha berilgan edi.

¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. T.: “Sharq”, 2000.

2005- yilda 9-sinf uchun adabiyot fanidan Davlat ta'lim standarti ishlab chiqiladi. Bu paytda umumiy o'rta ta'lim 9 bosqich bo'lib, 10-11- sinflar qisqartirildi. Co'lpon ijodi 9-sinf darsliklaridan o'rin ola boshladi. O'quv dasturida Co'lpon ijodi uchun **besht soat** ajratilib, bu vaqt ichida adibning **“Qalandar ishq”, “Ko'ngil”, “Kishan”, “Yong'in”, “Vijdon erki”** she'rlari hamda **“Kecha va Kunduz”** romani o'rgatilishi lozim. Birinchi soatda Co'lponning tarjimai holiga doir qo'shimcha ma'lumotlar hamda “Qalandar ishq”, “Ko'ngil” she'rlari o'qib tahlil etilsa, ikkinchi soatda esa “Yong'in”, “Vijdon erki”, “Kishan” she'rlari o'rgatilsa, qolgan uch soat davomida “Kecha va Kunduz” romani matni ustida ishlanadi.

2010 yil adabiyot fanidan Davlat ta'lim standarti qayta ishlab chiqildi. 9- sinf adabiyot dasturida “Yangi o'zbek adabiyoti” rukni ostida Co'lpon uchun ajratilgan soatlar o'zgarmagan (5 soat).¹

Qayta ko'rib chiqilgan ushbu o'quv dasturida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratildi:

1. Yozma adabiyotdan bir necha asr avval xalq og'zaki ijodi yaratila boshlagan va bu og'zaki ijod hozirga qadar yashashda davom etib keladi. Xalq og'zaki ijodi yozma adabiyot bilan birga eng yaxshi namunalari haqida bilim beriladi.

2. O'zbek adabiyoti jahon adabiyotining tarkibiy qismidir. Boshqa xalqlar adabi- yotidan ham ayrim xarakterli namunalar berish tajribasiga to'la amal qilindi.

3. Adabiyot ijtimoiy fan tarmog'i sifatida shu kecha-kunduzda tug'ilib va shakllanib kelayotgan avlodni milliy g'oya asosida tarbiyalash ishiga xizmat qilishi kerak.

1999- yil Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va 7- sinf adabiyot dasturida Co'lpon ijodi uchun **uch soat** ajratilgan. Shoir hayoti va ijodiga bir soat ajratiladi. Qolgan ikki soatini esa darslikda berilgan **“Binafsha”, “Go'zal”, “Buzilgan o'lkaga” she'rlari ustida ishlanadi.**

2010 yil 1-iyuldan Xalq ta'limi Vazirligi qaroriga binoan, umumiy o'rta ta'lim Davlat talim standartining sharxlari, o'quv dasturlari va darsliklari uzviylik, uzluksizlik hamda o'quvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlariga mosligi jihatidan tahlil qilinib, tegishli xulosa va takliflar ko'rib chiqildi. Unga ko'ra 7- sinf adabiyot dasturida Co'lpon ijodi va she'rlariga **ikki soat** ajratildi. “Yangi davr nafasi” rukni ostida berilgan shoirning **“Binafsha”, “Go'zal”, “Ko'ngil”, “Xalq”, “Buzilgan o'lkaga”** she'rlari ikki soat davomida tahlil qilinadi.

Ko'rib chiqilgan DTS ma'lum muddat o'tib, mamlakat o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalari DTS talablaridan yuqorilab ketganda, ya'ni o'quvchi-larning ko'pchilik qismi dastur talabiga javob bera oladigan darajaga yetganda, standart talablarini ko'tarish va millat a'zolari saviyasi, bilimdonligi darajasi o'lchovini yuksaltirish maqsadida DTS lar qayta ishlanadi, takomillashtiriladi.

¹ Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent-2010.

1917- yildan keyin ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot, adabiyot sohasida turli g'oyaviy-badiiy oqimlarni paydo bo'lishi Fitrat, Niyoziy, A Qodiriy, Co'lpon kabi adiblarning yangi hayot, madaniyat, adabiyot ravnaqi, yangicha nafosat mezoni qonuniyatlarini ishlab chiqish yo'lidagi harakatlari, adabiyotshunoslikning rivojlanishi, maorif sohasida yuz bergan o'zgarishlar, maktablarda o'zbek adabiyotini o'qitish mazmuniga, uni o'qitish usullariga ham ta'sir etdi. Maktabda adabiyot fanini o'qitish uchun zamin hozirlandi. Adabiyotshunoslikni rivojlanishi darsda adabiyot qonuniyatlarini yaratishga, yozuvchi ijodini aniq tarixiy sharoit bilan bog'liq xolda, uning asarlarini shakl va mazmun birligi asosida o'rganishga yordam berdi.

O'qituvchi maktabda Co'lpon she'riyatini o'rganishga ajratilgan soatda darsni o'quvchilarni shoirning hayot yo'li haqida darslikda qayd etilmagan ma'lumotlar bilan tanishtirsa, o'quvchilarning shoir haqidagi tasavvurlari yanada tiniqlashadi. Co'lpon hayotining bosqichlari, uning shaxsiyati, dramasi o'zi ham huddi go'zal asarlari singari o'quvchilarda yuksak ahloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Co'lponning hayotiga doir dalillarni O.Sharafiddinovning "Cho'lponni anglash" nomli risolasi, N Karimovning "Co'lpon" nomli ma'rifiy romani singari tadqiqotlaridan olish mumkin.

Cho'lpon Quroni karimni, shariat qonuniyatlarini o'rganish bilan birga arab, fors, turk tillarini o'rganadi. U keyinchalik ayrim she'rlarini usmonli turk tilida yozdiki, bu shoir iste'dodini namoyon etuvchi qirralaridan biri sifatida diqqatga molik. Tinimsiz o'qish-o'rganish va kuchli iste'dod tufayli Abdulhamid 16 yoshlarga yetib-yetmay ijod qila boshladi.¹

Ma'lumki Co'lponning talabalik yillari Turkistonda muhim ijtimoiy-siyosiy voqealarining boshlanish davriga to'g'ri keldi. Bu davrda Rossiya turkiy xalqlarga o'z ta'sirini o'tkazgan, yerli aholi o'rtasida rus tilini o'rganishga qiziqish toboro kuchaya borayotgan edi. Davr oqimini his qilgan yosh Abdulhamid fikrlarida ham o'zgarishlar paydo bo'ldi.

Har bir yozuvchining hayoti va ijodi u yashab ijod etgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan chambarchas bog'langan bo'ldi. Shu sababli yozuvchining hayoti va ijodi u yashagan davrdagi tarixiy voqealarga bog'liq xolda o'rganiladi, adabiy-tarixiy jarayon esa ijtimoiy va tarixiy hodisalar in'ikosi sifatida tushuntiriladi. Tarixiylik adabiyot o'qitishda asosiy shart hisoblanadi.²

1914-yil aprelidan boshlab "Toshkentda "Sadoyi Turkiston" nomida yangi gazeta chiqq boshladi. Haftada ikki marotaba chiqadigan bu "adabiy, iqtisodiy, fanniy va maishiy gazetaning muharriri advokat Ubaydulla Xo'jayev edi. Gazetaning 18 aprel sonidayoq Abdulhamidning "Turkistonli qarindoshlarimizga" degan she'ri bosildi.

Ilm-ma'rifat ham hunardin

¹ I.To'lak. XX asr o'zbek adabiyoi. Andijon- 1993.64-bet.

² Zununova.A. va boshqalar. Adabiyot o'qitish metodikasi. T.: "O'qituvchi",1992.

Qoldi mahrum bizni xalq
Ma'rifatsizlik balosiga
Yo'liqq'on bizni xalq.

Yosh shoir qalbidagi tuganmas dard va hasrat bilan sug'orilgan bu she'r, o'ninchi yillar o'zbek she'riyatining bosh g'oyaviy o'zagiga mansub. Abdulhamid ham navqiron ijodkor bo'lishiga qaramay, yangi o'zbek adabiyotining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishini I.Gasprali, M.Behbudiy, Fitrat, Avloniy singari jadidchilik xarakati ning peshqadam arboblari ta'sirida tez ilg'ab oldi hamda shu yo'nalishda she'riy va nasriy asarlar yaratishga kirishildi.”¹

Oradan hech qancha vaqt o'tmay “Qurboni Jaholat” hikoyasi chop etildi. Shu yili yosh qalamkash o'z ijodining mohiyatini ifodalab bergan “Adabiyot nadur?” maqolasini e'lon qildi. Sal o'tib “Do'xtur Muhammadiyor” hikoyasi bosildi. U bu hikoyasining boshlanishida “Turkistonning qorong'u bir go'shasida, tomlilik uyezdni shaharda” degan so'zlariga duch kelamiz.

Ayni paytda, sarlavha ostidayoq muallif hikoyasiga “Hayoliy” deb ta'rif beradi. Cho'lpon o'zi bilgan real muhit fonida ideal qahramonini o'quvchi, omma ibrat olishi lozim bo'lgan faol shaxsni harakatlantiradi.²

Rossiyadagi siyosiy to'ntarishlar davrida u bir muddat Orenburgda yashab, boshqird hukumati mahkamasida kotib lavozimida ishladi. So'ng Toshkentga qaytib, 1920 yilga qadar Turk ROSTA (Turkiston Rossiya telegraf agentligi) muhbiri bo'ldi. Bu davr voqealarini Z. Validin “Xotiralar” kitobida yozadi: - “Orenburgga yetib kelmasdanoq davlat tuzilishi bilan shug'ullandik. 1917 yilning dekabrda III Umumboshqirdiston quriltoyi yigirma ikki kishilik kichik sho'ro saylagandi. Ularni Orenburgga yig'ib oldik. Men ichki va harbiy ishlar bilan shug'ullandim. Shoir Abdulhamid Sulaymon mening sarkotibim bo'lib ishladi.”

V. Yan Cho'lponning hayot va ijod yo'li haqidagi hikoyasini o'sha zahoti yozib olgan. U 1933 - yil 7- oktabrda Moskvada yozib olgan. Bu yillar ziyolilar uchun o'z yo'lini izlash davri edi. Cho'lpon ham Fitrat boshchiligidagi “Chig'atoy gurungi” to'garagi majlislarida qatnashib, millat va vatanga yaxshiroq xizmat qilish yo'l larini izladi. “Chig'atoy gurungi” o'zini siyosatdan xoli tashkilot, deb e'lon qilgani va adabiy hayot muammolari bilan qiziqqaniga qaramay, doimiy ta'qib ostida yashadi. Uning imlo masalasida olg'a surgan g'oyalari eski imlo tarafdorlarining qarshiligiga uchradi. U “Chig'atoy gurungi”, - deb yozgan edi.

Cho'lpon, - asosini mahkam qo'rg'onligi va chiziqni to'g'ri chizg'onlig'i – o'zi ketsa ham o'zbekning yangi adabiyotida yangi, porloq, sharaflilik sahifalar ochdi va ochmoqda davom etadir”.³

¹ Karimov. N. Cho'lpon. Toshkent-2003. 28-bet.

² Quronov. D. Istiqlool dardi. T.: “Yangi asr avlodi”, 2000,9-bet.

³ Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. T.: “Ma'naviyat”,2004, 112-bet

1921-yil yanvar oyida Cho'lpon bolalar jurnaliga muharrir etib tayinlanadi. Cho'lponning shu yillarda bolalar ruhiyatiga mos she'rlar yozganining sababi ham "Bolalar dunyosi" ("Sharq chechagi") jurnalining chiqqan boshlashidir.

Cho'lpon 1924-yilda Moskvaga ketadi va dramaturgiyada tarjimon va dramaturg bo'lib ishlaydi. B. Bryusov nomidagi adabiyot institutida saboq oladi. Moskva adabiy muhiti Cho'lponga jiddiy ta'sir qiladi. U keyingi estetik yangiliklardan bevosita habardor bo'ladi. Rus ijodkorlari bilan yaqinlashadi.

20-yillar Cho'lpon uchun samarali ijod davri bo'ldi. 20-yillarning birinchi yarmida Turkustonda chiqib turadigan deyarli barcha gazeta – jurnallarda Cho'lpon she'r lari bosilib va ular turkistonliklarni o'zligini anglashga undardi.¹ Ularni she'rlari "O'zbek yosh shoirlari" (1923), "Go'zal yozg'ichlar" (1925), "Adabiyot parcha lari" (1926) to'plam va majmualarida o'rin olgan, maktablarga kirib borgan edi. Shu yillarda "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari" (1926) she'riy to'plamlari bosildi. Uning adabiyotshunlikda, publisistika borasidagi ishlari ham juda ko'p edi. Bu yillarda Co'lpon "Yorqinoy" (1921), "Xalil farang" (1921), "Cho'rining isyoni" (1926), "Yana uylanaman" (1926), "O'rtoq Qarshiboyev" (1928), "Xujum" (1928) singari asarlar yaratib, milliy dramaturgiya ni rivojlantirdi.

1926 yilda Toshkentga qaytgan Co'lpon sho'ro hukumati xujumiga duch keldi. Uni "millatchi" deya ayblaydilar. Respublika matbuotida Co'lpon ijodi bo'yicha ur-surdan iborat munozara bo'li o'tdi. 30- yillarga kelib, Co'lponga nisbatan siyosiy-mafkuraviy zug'um yanada kuchaydi. Natijada shoir 1932 yilda Moskvaga ko'chib ketadi. U yerda Gogolning "Tergovchi", I Frankoning "Feruza", Andreyevning "Osilgan yetti kishining hikoyasi" asarlarini tarjima qildi. 1935- yilda Toshkentga qaytib keladi va teatrdan emakdosh bo'lib ishlay boshlaydi. Bu yillarda unga qaratilgan xujumlar yanada zo'raydi, adib asarlari matbuotda bosil may qo'yildi. Shundan so'ng u Shekspirning "Xamlet", Pushkinning "Boris Godunov", "Dubrovskiy", Gorkiyning "Ona" singari asarlarini rus tilidan o'zbekchaga ag'dardi. Shu tahlilali yillarda Co'lpon "Kecha va Kunduz" romani, "Soz" she'r lari to'plamini yaratdi. 1937 -yilni 14- iyulida Co'lpon qamoqqa olinadi. Davrning bir guruh asl farzandlari qatori 1938- yilning 4-oktabrida o'tib tashlanadi.

O'qituvchi o'quvchilarni shoir shahsiyatiga doir shu kabi ma'lumotlar bilan bir soat davomida tanishtiradi. Ma'lumki Abdulhamid Sulaymon o'g'li Co'lpon hayoti va ijodi umumta'lim maktablarining 7- va 9- sinflarida o'rganish rejalashtirilgan. Ijodi bilan birgalikda darslikda she'rlari ham berilgan. Professor Qozoqboy Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, **"chinakam badiiy tahlil bo'lmagan joyda adabiyot o'qitish faqat quruq voqealar bayonidan yarim yalang'och g'oyalar tavsifidan iborat bo'lib qoladi"**. Shu talablardan kelib chiqib "Go'zal"

¹ Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. T.: "Ma'naviyat", 2004.

she'rining tahlili quyidagicha bo'lishi mumkin. O'qituvchi **“Go'zal”** she'rini yoddan aytib beradi. Albatta shu o'rinlarda she'rni yozilish tarixi haqida ma'lumot beriladi.

1919- yil voqealari hususida so'z borganda Cho'lpon she'riy ijodini cho'qqilaridan biri- **“Go'zal”** she'rini chetlab o'tib bo'lmaydi. So'ngra quyidagi izohli lug'atga tayanib she'r matnidagi notanish so'zlar ustida ish olib boriladi.

Suyimoq – sevmiq

Yo'qsil – bechora

Boshini bukmoq – boshini egmoq

Ul – da – u ham

Yo'ldan ozmoq – yo'lini yo'qotmoq

Lug'at ustida ishlagandan so'ng ikkinchi marta ifodali o'qilgan **“Go'zal”** she'ri o'quvchilarning tuyg'ilariga bevosita tegib ketishi tabiiy. Biroz sukutdan keyin uning tahliliga kirishish mumkin.

Cho'lpon asarlarini tahlil etishda qissadan xissa chiqarishga shoshilmaslik kerak.

Asarlarda ruhiy manzaralar chiziladi, inson hissiyotining lahzalik to'lg'onishlari ko'rsatiladi. Shu boisdan ham lirik asarlarni **“shoir mana bunday demoqchi”**, **“ana unday xulosa chiqaryabdi”** tarzida tahlil qilish uni yo'qqa chiqarish bilan tengdir. Bu xil asarlarning joziba manbaasini topish, tuyg'ularini bezovta qilgan nuqtalarini ajrata bilish adabiy ta'limda o'quvchilar oldidagi asosiy vazifadir. Badiiy satrlar qatiga berkitilgan o'zlari topishlari maktab adabiy ta'limning bosh maqsadiga muvofiq keladi.

She'rning quyidagi bandlariga nazar tashlasak, shoirning nazm bobidagi mahorati yaqqol namoyon bo'ladi:

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,

Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen

Ul yulduz uyalib, boshini bukub,

Aytadur: men uni tushda ko'ramen,

Tushimda ko'ramen-shunchalar go'zal,

Bizdan-da ko'zaldir, oydan-da go'zal!

“Go'zal” da Cho'lpon tabiatning juda dilbar she'riy manzarasini yaratgan. Shoir inson ruhiyatidagi o'zgacha xolatlarni tabiat bilan munosiblikda tasvirlashga hara -kat qilgan. Asar qahramoni oshiqning hissiyotlarini tabiatga ham bog'laydi. Oshiq tabiatni dard bilan, insoniy ishq bilan munavvar qiladi. Oshiq o'zi izlayotgani go'zalni tastlab **“qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib, eng yorug' yulduzdan”**.... so'raydi.

O'qituvchi she'rning boshidanoq o'quvchilarni oshiq tuyg'ulariga yaqinlashtirish kerak. Nega oshiq go'zalni tunda izlay boshladi? Nima uchun ma'shuqasini "eng yurug' yulduzdan" so'radi? Bu yulduz go'zalni tushda ko'rishining boisi nima?

O'quvchilar shu savollarga javob topishi uchun she'r matniga tayanib bosh qotir salar asarning jozibasi, siri yanada chuqurroq ochila boradi. Savollarga sinfdagi o'quvchilarning hammasi javob berishi shart emas javobni hammadan birday talab qilish ham metodik jihatdan uncha to'g'ri emas.¹ Agar savolga javob bo'lmasa, uni ochiq qoldirish, bu haqda o'ylab ko'rishni tavsiya qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchiga ma'lumki, ishqqa giriftor bo'lganlarga uyqu harom. Shu bois "Go'zal" ning qahramoni oshiq – bedor. Bedor oshiq o'ziga dardkash izlashi tabiiy, lekin bunday tuyg'ularni boshqa birov bilan o'rtoqlashib bo'lmaydi. Shu sabab lirik qahramoning uyqusida tunda osmon jismlariga, eng yorug', eng yaqin yulduzga murojaat etishi, undan yorini so'rashi ishonarli. Endi o'quvchilar yulduz ne uchun go'zalni o'ngidamas tushida ko'rgani haqida o'ylab ko'rishlari kerak.

O'qituvchi buni o'quvchilarga qo'shimcha savol tarzida o'rta tashlaydi. Ma'lumki iboli, hayoli qizlar bemahal ko'cha kezmaydi. Yulduz va Oy ma'shuqaning ta'rifini eshitishlari, eshitmaganliklari asnosida tushlarida ko'rishlarigina mumkin xolos.

O'qituvchi eng yorug' yulduzning e'tirofiga o'quvchilar diqqatini qaratish kerak:

"Tushimda ko'ramen-shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal"

O'qituvchi o'quvchilarning e'tiborini oshiq o'z mahubasini faqat bittagina "eng yorug' yulduzdan" so'raganiga qaratadi. Lekin u "Bizdan-da go'zaldir....",-deya javob beradi. Nima uchun? O'quvchilarning javobi bitta yulduz, u porloq bo'lma -sin, ko'kning ko'rki bo'lmasligi, osmon to'la yulduzlar uning asosiy go'zalligi ekanligi, ularning go'zalligi ham tartibli-tartibsizligida ekanligini qamrab qololsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar javob chiqmasa, o'qituvchi shunday yo'nalishini o'rta tashlab ko'rishi mumkin.

Cho'lpon she'riyatini birinchi misrasidayoq poetik ma'noni ta'sirchan ifodalash niyatida she'riy san'atga dadillik bilan murojaat qilgan: berilga matndagi "ko'z tikmoq" birikmasi ibora bo'lib u qarab tikilmoq, nazar tashlamoq kabi ma'nolarni bildiradi. Agar asar matnida ibora qo'llangan bo'lsa bu **ta'bir** san'atidir. Kecha so'zi oldidagi qorong'u, yulduz oldidagi yorug' so'zlari tufayli **sifatlash** san'ati yuzaga kelganini tushuntirish maqsadga muvofiq. Qorong'u va yorug' so'zlarga ma'no jihatdan zid bo'lganligi uchun **tazod** she'riy san'atda qo'lagan. Yulduzning uyalib, boshini bukib turishini **tashxis** (jonlantirish) san'ati xosil bo'ladi. Matnda

¹ Husanboyeva.Q. Cho'lpon ijodidan bir dars. Til va adabiyot ta'limi. 2009, 11-son-69-bet.

tush so'zi ikki marta, go'zal so'zi uch marta takrorlanishi hisobiga **takrir** san'ati qo'llanilgan. She'rni keyingi bandini tahlil qilamiz.

Ko'zimni olamen oy chiqqan yoqqa,
Boshlaymen oydan-da seni so'rmoqqa .
Ul-da aytadir: bir qizil yanoqqa
Uchradim tushimda, ko'milgan oqqa.
Oqqa ko'milganda shunchalar go'zal,
Mendan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Bedor oshiq yulduzdan qoniqarli javob ololmagach ko'zini "oy chiqqan yoqqa" olishga majbur. Oy: "bir qizil yanoqqa uchradim tushumda," "ko'milgan oqqa",- deb javob aytadi.

O'quvchilar oyni tushidagi malak ne bois oqqa ko'milganini izohlashlari mumkin: tushida bo'lsada, go'zalni ko'rmoq uchun oyning o'zi ham bo'y ko'rsatadi. Shunda undan mayin oq rangli nur, sutday nimtatir yorug'lik taraladi. Oydan taralgan nur malakka tushib, uni bag'riga oladi. Yerdagi malakning oppoq kiyimi ko'kdagi oyning nuri bilan qo'shilishib go'zalni oqqa ko'madi. Lekin she'rda "qizil yanoq" degan **sifatlash** bor. Sharq malaklari uchun qizil yuz ham sog'lomlik, ham go'zallik timsoli. Malakning qizil yanog'i she'rning keyingi bandidagi kunning qizilligiga bog'lanadi. Bu misralarda Oyning tilga kirishi **intoq** san'ati qo'llangan.

To'rtinchi misra ohiridagi oqqa so'zi keyingi misra boshidan kelishidan **tasbig'** san'ati yuzaga chiqqan. Ikki so'zning ko'milgan oqqa-oqqa ko'milgan so'zlarining o'rnini almashtirish evaziga **tardi aks** she'riy san'ati vujudga kelgan.

Erta tong shamoli sochlarin yoyib,
Yonimdan o'tganda so'rab ko'ramen.
Aytadir: bir ko'rib, yo'limdan ozib,
Tog'u-toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko'rdim men uni-shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Yorini so'roqlab tong ottirgan oshiq "erta tong shamoli" dan ham uni surishtirmay ilojisi yo'q.

Tongi nasim go'zal malakni tushida emas o'ngida ko'rgan. Lekin bu baxtiyor visol unga bir martagina nasib etgan. Uning sarson kezmog'i, go'zalda telbalarcha oshiq bo'lmog'i uchun bir marta ko'rishning o'zi kifoya: "... Bir ko'rib, yo'limdan ozib, tog'u-toshlar ichra istab yuramen". Sirli go'zalning tongi shamol ga yo'liqishini o'quvchilar oson izohlaydilar. Shoir nazaridagi o'zbek qizlari saharxez bo'lishadi. Shu bois oshiqning ma'shuqasi tong nasimi nigohiga ro'baro' bo'lishi tabiiy. Nihoyat oshiq unga murojaat etadi:

"Ul-da o'z o'tidan bekinib, qochib aytadir:

men ko'rdim tushdamas, o'ngda.

Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal

Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal.

Agar e'tibor berilsa, she'rning bu qismida ham **tashxis, takrir** kabi she'riy san'atlar ifoda etilgan. Lirik qahramon erta tongda esayotgan shamolga savol-javob qiladi. Shamol ham o'z iddaosini bayon etadi va **husni ta'lil**-chiroyli dalil keltirish san'atini qo'llagan. Bunda shamolning yo'ldan ozib, tog'-u toshlar ichida izg'ib yurishi shunchaki berilgan emas. Chunki u ham go'zal bir martagina ko'rgan va go'zalligidan hayratga tushgan. O'zini yo'qotib, yo'ldan ozib istab yurganligi shoirona dalillangan.

Izlagan topadi deganlariday, kun ham u malakni bir bor ko'rishga muyassar bo'lgan. Lekin o'sha bir uchrashuv uning ham go'zalga oshiq bo'lishi, o'zidan-da, oydan-da go'zal ekanligini e'tirof etish uchun yetarli bo'lgan. O'quvchilarning e'tibori mazkur to'rtlikdagi "Ul-da o'z o'tidan bekinib,qochib" misrasiga qara- tilishi kerak. She'rdagi har qanday detalni payqay olish uni tushunishning samarali didaktik yo'lidir. O'quvchiga ma'lumki, quyoshga tik qarab bo'lmaydi. Otashning zo'rligidan kishining ko'zi qamashadi. Bu holatini shoirona nigohgina "o'z o'tidan bekinib,qochib" tarzida ifodalay olishi mumkin.

Yulduz, Oy, shamol, kun yordamida oshiq qalbidagi, ishq o'ti alangasining baland ligi, hijron azobining qanchalar og'irligi ochildi. Faryod kechib olamdagi eng muqaddas narsasini izlayotgan oshiqning holati o'quvchilarga shu tariqa angla -shildi.

Men yo'qsil, na bo'lib uni suyibmen,

Uning chun yonibmen, yonib-kuyibmen,

Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen,

Men suyub..... men suyub, kimni suyubmen?

Men suygan suyukli shunchalar go'zal,

Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

She'rning so'ngi bandi to'lig'icha oshiq ruhiy xolati, kayfiyati ifodasidan iborat. Hajr yo'lida o'rtanayotgan oshiq ma'shuqasidan og'rinmaydi, u yomon ko'rmaydi. U hatto visol ham talab qilmaydi. Shu bois "boshimni zo'r ishga berib" suyganlaridan pushaymon emas. U bilan faxrlanyapdi, uning hayoli ila yashaydi.

"Yo'qsil" so'zi orqali shoir ezilgan, haq-huquqsiz, mazlum insonga ishora qiladi. Shoir timsoliga uyg'unlashgan bu obraz uning erk, ozodlik ekanini anglatadi. Shoir mazkur rang-tasvir orqali yurt ozodligi uchun kurash yo'li hozircha to'silgan, ammo quyoshni butkul to'sib bo'lmas, uning nurlari erk ishq bilan yongan oshiqlar qalbini yaqin kunlarda yoritajak, ishonadi. Shu o'rinda shoir mahoratining yana bir qirrasi namoyon bo'ladi. Bantdagi suyib, suygan,

suyukli soʻzlarida **ishtiqoq**-oʻzakdosh soʻzlarini qoʻllash sanʼati hosil boʻlgan. Demak, sheʼr ibtidosi badiiy sanʼatlar bilan qanday ziynatlangan boʻlsa, intihoda ham shoir bu anʼanaga sodiq qoladi. Shoir xoksor ohangda oʻzini “men yoʻqsil” deya atashida **taqsir** sanʼati qoʻllangan. Taqsir sanʼati fahriya sheʼriy sanʼatining teskarisi. Agar fahriyada shoir oʻzi isteʼdodidan faxrlanib maqtansa, taqsirda esa oʻzining uquvsiz, qobiliyatsiz qilib koʻrsatishga harakat qiladi.

“Men suyub...., Men suyub kimni suyubmen?” misrasi ohangida **tajahuli orifona**-bilib bilmaslikka solish sanʼati qoʻllangan.

Xullas, “Goʻzal” sheʼrini oʻrganish jarayonida undagi obrazlarni, vazn xususiyatlari hamda asosiy va yordamchi sheʼriy unsurlarni aniqlash, matindagi badiiy sanʼat namunalari oʻquvchilarning koʻz oʻngida koʻrsatib, ularning har biri haqida maʼlumotlarini berib borish adabiyot oʻqitishdagi samarali usullardan hisoblanadi. Darsda oʻquvchilarga “Goʻzal” sheʼrini yodlab kelish topshiriladi va savol-topshiriqlar ustida ishlanadi.

Shoir sheʼrlarida inson obrazi qanchalik dard, fidoyilik bilan chizilgan boʻlsa, uning peyzaj lirikasi namunalarida ham bu narsa toʻla saqlanib qolgan. Uning sheʼrlarida tabiat va inson timsoli doimo yonma-yon keladi. Sharqona mubolagʻa, jonlantirish, istiora sanʼatlaridan mohirona foydalangan shoir tabiatga ham insondek munosabatda boʻladi. Shunday sheʼrlardan biri darslikka kiritilgan “**Binafsha**” sheʼridir. Tabiatning armonlaridan tugʻilgan binafsha ham shoir xislarini qoʻzgʻaydi. Avval oʻquvchilardan binafsha guli haqida soʻraladi va oʻquvchilar fikrlari eshitiladi.

Binafsha bahor elchisi, gullar ichida eng qadrlisi. Odamlar uni uzib, hidlab, omonlik deya shukronalar aytishadi, soʻligach esa tashlab yuborishadi. Shoir binafsha qismatiga achinib, uning timsoliga erksiz xalqini, qadrsiz millatini tasavvur etadi.

“**Binafsha senmisan, binafsha senmi, koʻchada aqchaga sotilgan?**” misralarida erksiz, bir parcha non uchun koʻchada aqchaga sotilishiga majbur boʻlgan inson koʻz oldimizga keladi.

Bahorning ilk elchisi boʻlgan bu nazokatli vujudning qishning qahrli nayzalarida mardlarcha koʻkrak kerib turgani shoir hayoliga oʻzbek ayoli qalbidagi oʻtli tugʻyonlarni keltiradi. “Bir erkin kulmasdan” uzilgan Binafsha iztiroblariga oshno boʻlish, hamdardli kayfiyati uning dushmanlari (qishning izgʻirirlari) ga nafrat xislari bilan almashinadi.

Binafsha,
Ayt menga,
Kimlardir, ular kim,
Ignani bagʻringga sanchalar?
Binafsha,
Bir soʻyla,
U qanday qoʻllar kim,

Uzalar, hidlaylar, yanchalar?

Misralarda esa shoir mustamlaka tuzum davrida yerli fuqaro hayotining nochorligi binafshani uzib, hidlab, so'ligach, bepisand tashlab yuborishiga o'hshatiladi. She'ring uchinchi bandidagi "binafsha chiroyli yuzining bor, tortuvchi tusing bor" so'zlaridan o'zbek xalqining donishmand, ilm-ma'rifatli, yaratuvchi ekanligidan fahrlanishga chaqiradi. Boshqa millatlar bilan teng ekanligini g'urur bilan ta'kidlaydi. So'ngi banddagi **"Binafsha, sen uchun ko'kragim erk yeri, bu yerdan ko'klarga uchib"** so'zlari orqali shoir xalqining qayg'usi o'zini ham qayg'usi ekanligini tushuntiradi, bunda ko'kragim va erk yeri so'zlari **istiora** bo'lib, "ko'kragim" so'zi vatan tushunchasini ifodalagan. She'r so'ngida shoir omma xali ongli, kurashchang, o'z haq-huquqini tanuvchi xalq darajasiga ko'tarilmaganidan qattiq afsuslanadi. She'r ustida savol va topshiriqlar bajariladi va o'quvchilar xulosalari tinglanadi.

1921- yili Co'lpon ota yurtiga boradi. Andijon avvalgi sokin shahar emas, balki buzilgan arining uyasi edi. Bunday manzaralar ikki-uch yil ichida, sho'rolar davrida ro'y berganini tuydi. Bu holat ertangi kunda ham notinch bo'lishidan darak beradi. Shoirni chirmab olgan iztirobli hayollar to'liqin urib, qog'ozga to'kildi, **"Buzilgan o'lkaga"** she'rini yozdi:

Ey tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r o'lka,
Nega sening boshing uzra quyuq bulut ko'lanka?
Ujmohlarning kavsari dek pokiza.
Sadaflarning donasidek top-topza.
Salqin suvlar tog'dan quyi tusharkan,
Tomchilari yomg'ir kabi ucharkan,
Nima uchun yig'lar kabi ingraylar?

Lug'at beriladi.

Ritorik murojaat usuli orqali ham shoir yuz bergan xunrezlik, qirg'in, talon-taroj lik, bosqinchilik oqibatida xonavayron bo'lgan o'lkaning qayg'uli manzarasini chizib beradi. Yurt shunday ahvolga tushdiki, jannatdan kavsar bulog'idek pokiza, sadafdek tiniq tog' suvlari ham yuz bergan holatdan ingramoqda, bosqinchilarning otlari izlaridan zarb yegan yam-yashil o'tloqlar, gulu gilyohlar ham faryod chekmoqda, "sharaq-maraq qaynab chiqqan buloqlar: "to'rt tarafga alanglab", "qo'rqinchili qo'noqlar" dan yurak hovuchlagandey titrab oqmoqda".

O'qituvchi bu she'rda shoir xalq og'zaki ijodiga xos qaynar buloq kabi obrazlarga qiyoslab sahovatli va barakatli ona zaminimizning yer osti va usti boyliklari "Qaynar javohirlari" deb nomlaganini aytib o'tish joizdir.

Co'lpon kuni kecha ko'rganlari vatandoshlarining- go'zal qizlari, yosh kelinlarini yo'qligini, ko'm-ko'k go'zal o'tloqlar ustida na poda, na yilqilarni, na podachini ko'rib ot

kishnashi, qo'y ma'rashi o'rniga yig'i ovozini eshitib, azobga tushdi. Uning tuyg'ulari birikib o'laroq yig'ilib, bu razil voqelikni yaratgan kuchga qaratildi.

Sening qattiq sirt-bag'ringni ko'p yillardir ezganlar,
Sen bezsang-da darg'asang-da ko'kragingda kezganlar,
Sening erkin tuprog'ingda hech haqqi yo'q xo'jalar,
Nega seni bir qul kabi qizg'anmasdan yanchalar?

Bu satrlar nafaqat chorizm mustamlakachilariga, balki qizil imperiya zulmkorlariga ham qaratilgan edi. Yuqoridagi satrlarni davomi bo'lgan **“Nega tag'in tanlaringda qamchilarning kulishi”** misrasidagi “tag'in” so'zi masalaga oydinlik kiritib turibdi. Shoir bu o'rinda diqqatni zulm yo'qolmasdan, uning shakli o'zgarganligiga qaratmoqchi bo'ladi.

Nega yolg'iz qon bo'lmishdir ulushing?
Nega buncha umidsizdir turishing?
Nima uchun ko'zlaringda tutashguvchi olov yo'q?
Nima uchun tunlaringda bo'rilarining qorni to'q?
Nima uchun g'azabingni uyg'otmaydi og'u-o'q?

Cho'lpon she'rlarida **“qon”** so'zi ko'p bor qo'llangan. Bu bejiz emas. “Xo'qand fojiasi” da Turkiston muhtoriyatining qonga botirilishi Vatan tarixida eng fojiali voqea edi. Chechaklar vodiysi qonlar vodiysiga aylandi. Go'zal Farg'ona- motam libosini kiydi. Qilichlarni tillarida qizil qon toshdi. Bu ko'rguliklarni ko'rgan bulut lar ham qonli yosh to'kib yig'ladilar.

Cho'lponning bu she'rlarida har bir rang o'ziga xos ma'noning ifodalaydi. Jumladan oq rang orqali shoir poklik, ezgulik, pokiza va latif insonlarni tuyg'ularini ifoda etadi. Qora rang esa mustamlakachilik zulmidan ezilgan, haq-huquqi paymol etil gan inson hayotining iztirob va fojialarini aks ettirishga xizmat qilgan. Sariq rang orqali ishonchi, orzu-umidlari chil-parchin bo'lgan shoirning dard-alamga yo'g'irilgan tuyg'ulari, o'kinchi aks etgan bo'lsa, zangori rang yurti bosqinchilardan ozod, millatni erkin va baxtiyor ko'rish haqidagi orzularini ifodalaydi.

Cho'lpon she'riyatidagi bu go'zallik tasvirlarini quyi sinflardan boshlab o'quvchi larga o'rgatib borish shoir estetik dunyosini kashf etib, uni chuqur tushunishga yordam beradi. O'quvchilarga Cho'lpon she'riyatidagi ma'no-mundarijani to'laroq anglatish, ularni ona-Vatanga, millatga, xalqqa sadoqatli qilib tarbiyashda katta ahamiyat kasb etadi.

Umumta'lim maktablarining 7 sinfida “Yangi davr nafasi” turkumi ostida jadid adabiyoti vakillaridan Cho'lpon adabiy merosi kiritilgan. Dars ikki soatga berilgan bo'lib, hayoti va ijodi haqida hamda “Go'zal”, “Binafsha”, “Buzilgan o'lkaga” she'rlari berilgan. Shoir she'rlarini o'rganish yuzasidan yuqoridagi dars jarayonlari ni keltirib o'tdim.

Cho'lpon ijodi bo'yicha quyidagi interfaol usullarda ham ishlash mumkin. Darsning ikkinchi soatida foydalansa bo'ladi. Avval darsga Cho'lponning quyidagi so'zlarini shior qilib tanlayman.

**“Adabiyot uquvluk adiblar yetishtirayluk, adabiyot
Kechalari yasayluk, ruh, his, tuyg'u, ong va o'ylayluk”**

She'riyatga qiziqishini oshirish, o'z fikrini yosh munaqqidlardek bayon eta bilishi, qo'shimcha adabiyotlardan ko'proq foydalana olishini o'rgatish maqsadida o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Ular o'rtasida **“O'tkir zehnlilar”** musobaqasi o'tkaziladi. Do'skaga vatman qog'ozga “Alibobo va qirq qaroqchi” ertagidagi tog' chiziladi. O'quvchilarga ma'lumki, g'orning ichida xazina yashiringan. Shu xazina ni qo'lga kiritish uchun esa beshta to'siqdan-shartdan o'tishlari kerak bo'ladi. Shundagina g'or ochiladi. Shartlarni bajarganlari sari g'orning og'zi ochilaveradi. Xazina esa Cho'lponning “Kecha va kunduz” romani va D. Quronovning “Cho'lpon nasri poetikasi” kitoblari.

Guruhlar o'zlariga nom tanlaydilar.

1-shart: Savollar, savollar, savollar,
javob berar hamma narsa ayonlar.

1-shart bo'yicha ikkala guruh o'quvchilari Cho'lponning ijodi bo'yicha o'zaro savol-javob o'tkazadilar.

1. Cho'lpon qachon, qayerda tug'ilgan?
2. Cho'lponning yoshlik davrini, oylasini so'zlab bering.
3. Cho'lponning dastlabki she'rlari qachon chiqa boshladi?
4. Cho'lponning tahsil olgan joylari.
5. Cho'lponning hikoyalarini sanab bering.
6. Adabiyot yashasa-..... fikrini davom ettiring.
7. Cho'lpon bolalar to'g'risidagi qaysi jurnalga muharrirlik qildi?
8. Cho'lponning romanlarini ayting.

Berilgan javoblarga ko'ra g'orning birinchi eshigi ochiladi.

2-shart: Aytsang garchi sen she'r
Unda bo'lsin buyuk sehr.

2-shart bo'yicha esa guruhlar Cho'lpon she'rlari bo'yicha bahru bayt bilan davom etadir. Uch daqiqa vaqt beriladi.

- 1-guruh. Alam oldi, firoq oldi, qon qoldi,
Amal qoldi.....Ko'zi yoshli jon qoldi.
- 2-guruh. Ilgarida bo'lmasa ham endi bor,
G'arb ustida bosh ko'targan ulug' kuch.

- 1-guruh. Chiqadigan quyoshni siz behuda
Etak bilan to'smoq uchun tirishmang.
- 2-guruh. Go'zal qizlar, yosh kelinlar qayerda?
Javob yo'qmi ko'klardan-da, yerdan-da.
- 1-guruh. Aytadir bir ko'rdim, tushdamas, o'ngda
Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal.

Shu tariqa bahru bayt davom etiriladi. Bu eshik ham ochiladi.

- 3-shart.** Bo'lmasangda gar aktiyor,
Rolni qoyillatib bajar.

Shart bo'yicha Cho'lpon hayoti va uning asarlari bo'yicha sahna ko'rinishi namo -yish etiladi. Bu shart boshqa shartga nisbatan o'zgacharoq. Chunki,ikkala guruh birlashib sahna ko'rinishi ko'rsatadilar. Guruhlar birlashib, o'qigan shoirning asrlarini ham ko'rsatishlari mumkin. Bular esa shoirning bolalik yillaridagi xotira larini sahnalashtiradi.

“Abdulhamid 6-7 yoshdaligida Mirkomilboyning ziqnaligini tanqid qilib, gazetaga maqola yozadi. Buni eshitgan boy darg'azab bo'lib Sulaymon bazzoz bilan torti -shadi. Sulaymon o'g'lini yoshligini, maktab ko'rmaganligini aytadi va o'zi ham o'ynab yurgan Abdulhamidni ko'rib g'azabdan tushganligini ko'rsatadilar. “

G'orning uchinchi eshigi ochiladi.

- 4-shart:** Yillar tilga kirar
Muammolar hal bo'lar.

Bu shartda shoir hayotiga oid sanalar ko'rsatiladi. Ular asosida ma'lumot beriladi.

- 1-guruh. 1914 yil? (Cho'lponning “Turkistonli qarindoshlarimizga” she'ri “Sadoi Turkiston” gazetasida chiqadi.)
- 2-guruh. 1921 yil? (“Xo'qand fojiasi” bo'lib o'tdi, bu voqea she'rlarida aks etdi.)
Eshik ochiladi.

- 5-shart.** O'ylamasdan javob ber,
Xazinani ipga ter.

Shart bo'yicha bir lahzalik savol-javoblar o'tkaziladi.

(Savollar tayyor holda bo'ladi, ular javob beradilar.)

1. “Go'zal” she'rida Yulduz bilan Oyning go'zalning o'nglarida emas, tushlarida ko'rishiga sabab nima deb o'ylaysiz?

(1-guruh javob beradi.)

2. Sizningcha, nega yulduz bilan oy go'zalni tushida ko'rishgan-u, shamol o'ngida ko'rgan? Bunga asos bormi?

(2-guruh javob beradi.)

3. “Go’zal” she’ridagi go’zal obrazini kim deb o’ylaysizlar? Odam timsolimi, ozodlik ramzmi, baxtmi, boylikmi?
4. “Binafsha” she’ridagi obrazi qanday majoziy ma’noga ega deb o’ylaysiz?
5. “Binafsha, sen uchun ko’kragim erk yeri” misra mazmunini sharxlang.
6. “Buzilgan o’lkaga she’rining” she’rining shu tarzda nomlanishi sababini tushuntiring.

(Eshik ochiladi) guruhlar g’orga kirishga musharraf bo’ladilar. Ikkala guruh ham g’olib bo’lgani uchun “Xazina” ni ya’ni kitoblarni ikkala guruhga taqdim etiladi. Vazifa qilib, Co’lpon she’rlarini yod olishni beraman.

Bunday musobaqa darslari o’quvchilarning ruhiyatiga ta’sir etib, ularda adabiyot darslariga qiziqish bilan bir qatorda mustaqil mutolaa qilishga istak va hohish uyg’otadi, barcha o’quvchilarni faollashtiradi.

O’quvchilar baholanadi.

Dars o’qituvchining quyidagi so’zlari bilan yakunlanadi: Aziz o’quvchilar, siz Cho’lpon hayoti va u buyuk zotning eng ajoyib, ma’nolarga boy she’rlaridan parcha o’rgandingiz. Darsda o’rganganlaringizni vujud-vujudingizga singdirib yuborishingizni istayman. Bu fazilatlar sizni barkamol inson darajasiga ko’taradi. Bolalar, siz bu matnlarni tez-tez o’qib turishingiz kerak, takror o’qiganingizda esa yana yangi ma’nolar topasiz. Sizni har tomonlama yetuk inson bo’lishingizga yordam beradi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning sifat bosqichida amalga oshirilishi ko’zda tutilgan vazifalardan eng muhimi uzuliksiz ta’lim tizimidagi o’quv muassasalarining faoliyatiga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishdir.

Yangi pedagogik texnologiyalar o’quv jarayonida kam jismoniy kuch va vaqt sarflab, yuqori natijalarni qo’lga kiritish imkonini beradi.

Adabiy ta’limni tashkil etish, umumiy o’rta ta’lim maktablari o’quvchilari tomonidan adabiyot fani asoslarini o’zlashtirishda samaradorlikka erishish, shuningdek, ularda badiiy tafakkurini shakllantirishda yangi pedagogik texnologiyalarning muhim o’rin tutishi amaliyotda o’z isbotini topmoqda.

Zero, pedagogik texnologiyalar o’quvchilarni muayyan badiiy asarda ilgari surilgan g’oyalar mohiyati bo’yicha mustaqil fikr yuritish, syujetlar tizimi asosida muallif tomonidan taklif etilayotgan yechimning mazmunini tahlil etish, badiiy talqinda ifoda etilgan ijtimoiy munosabatlar jarayonida bilvosita ishtirok etish asosida mustaqil hayotga tayyorlash imkonini beradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga, ya'ni o'qitishning noan'anaviy usuliga bo'lgan talab borgan sari ortib bormoqda.

Innovatsiya (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilikdir.

Innovatsiyani amalga oshirish nazariy bilimlarni amalda tekshirib ko'rish orqali talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini oshirish hisoblanadi. Nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida amaliy mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarning ijodkorlik va bilim faolligini oshirish muammosini hal etish mumkin.

O'qitishning noan'anaviy usullari o'quvchi faolligini oshiradi. Chunonchi, o'quvchilar o'quv jarayonida mustaqil fikrlashga harakat qilishadi. Topshirilgan vazifaga ijodiy yondashish, izlanish payida bo'lishadi. Muhimi, ularda tahlil eta olish, o'zlari xulosa qilib, o'z-o'zini baholay olish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekiston sharoitida esa, innovatsiyalarni o'rganish, uni ta'lim jarayoniga tadbiq etish ta'lim tizimini isloh qilish masalalari bilan bog'liq ravishda tayyor axborotlarni berishga asoslangan an'anaviy o'qitish turidan, o'quvchilarning o'zlarini izlanishga, ma'lumotlarni o'zlari izlab topishga o'rgatadigan ta'lim tizimiga o'tish yo'lidagi harakatlari bilan asoslanadi.¹

Yangi pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonida kam jismoniy kuch va vaqt sarflab, yuqori natijalarini qo'lga kiritish imkonini beradi. Pedagogik texnologiyalar o'quvchilarni muayyan badiiy asarda ilgari surilgan g'oyalar mohiyati bo'yicha mustaqil fikr yuritish syujetlar tizimi asosida muallif tomo nidan taklif etilayotgan yechimning mazmunini tahlil etish, badiiy talqinda ifoda etilgan ijtimoiy munosabatlar jarayonida bilvosita ishtirok etish asosida mustaqil hayotga tayyorlash imkonini beradi.

Buni umum ta'lim maktablarining **9-sinfida** adabiyotimizda milliy uyg'onish davri vakili bo'lgan ma'rifatparvar adib Cho'lpon ijodiga bag'ishlangan **besht** soatlik dars misolida ko'rsatmoqchiman.

Ushbu darsda quyidagi maqsadga erishish ko'zda tutiladi:

-o'quvchilarni Cho'lpon hayoti va ijodi, shuningdek, **“Qalandar ishq”**, **“Ko'ngil”**, **“Kishan”**, **“Yong'in”**, **“Vijdon erki”** she'rlari hamda **“Kecha va Kunduz”** romanida ilagari surilgan g'oyalar bilan tanishtirish, mazkur she'rlarning badiiy xususiyatlari haqida ma'lumot berish:

-o'quvchilarga darslikda berilgan she'rlar mazmunini tahlil qilishni o'rgatish;

-o'quvchilar asar g'oyasi xususidagi shaxsiy mulohazalarini bayon eta olish;

¹ Erkaboyeva N. Yangilangan pedagogic fikrlarning mohiyati va uning ustuvor yo'nalishlari. Xalq ta'limi, 2005. 6-son,17-bet.

-tahlil etilgan asarlar asosida o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish.

Dars quyidagi tartibda o'tkaziladi:

Birinchi soatda Cho'lponning hayot yo'liga doir qo'shimcha ma'lumotlar hamda "Qalandar ishq", "Ko'ngil" she'rlari o'qib tahlil etiladi.

Har bir adibning ijodi uning hayot yo'lini o'rganishdan boshlanadi. Metodik adabiyotlarda muallif tarjimai holi ikki sababga binoan o'rganiladi: birinchidan, tarjimai hol o'rganiladigan badiiy asarni tushunishga kalit bo'lishi, ikkinchidan, millatning eng yetuk farzandlaridan hisoblanmish adiblar hayotidagi namuna bo'lguli jihatlar orqali o'quvchilar ma'naviyatida muayyan sifatlarini shakllantirishi mumkinligi qayd etilgan.

Adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarga dasturga kirgan va bir mavzu bo'yicha darslikda berilgan materiallariga qo'shimcha ravishda kengroq va chuqurlash tirilgan bilim bersagina dars hozirgi kun talabiga javob beradigan darajada bo'lishi mumkin.

Chunki darslikda berilgan material faqat o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun mo'ljallangan bo'lib, o'qituvchi bundagi material bilan chegaralanmasligi kerak.

Darslikka qo'shimcha materialni esa o'qituvchi mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida chop etilgan risola, maqola, gazeta va jurnal materiallaridan olishi lozim.

Cho'lponning hayot yo'li va ijodi yuzasidan o'quvchilar 7- sinfda batafsil tanishganlar. 9- sinfda darslikka kiritilmagan ma'lumotlar bilan o'qituvchi tanishtiradi.

Asrimizning birinchi choragida Turkiston xalqlari milliy uyg'onishi boshida turgan ulkan iste'dodlar yetishib chiqdi. Ular safida g'oyat nozik talant sohibi Abdulla Qodiriy yozganidek "Navoiydan keyin chiqqan o'zbek shoirlari ichida ehg kuchli lirik shoir" Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ham bor edi.

Cho'lpon ijodi haqidagi baxs va munozaralar asosan 20- yillarda boshlangan. Ma'lum ma'noda o'z tengdoshlari maqsadlarini bir nuqtaga yig'moqchi bo'lgan 17 yoshli Cho'lpon o'rtaga "Adabiyot nadur?"-degan so'roqni tashladi va javob berdi: "Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, o'chgan, yaralangan ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, tanlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydigan o'tkir, yurak qirralarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi".

So'z san'atining inson ruhiyatini poklovchi bir kuch ekanligini anglab yetgan Cho'lpon uni muqaddas deb tushunadi. Uning qalbiga ikki kuch orom bermaydi, sergaklantiradi. Birinchisi, ulkan an'anaga ega bo'lgan mumtoz adabiyot talablari darajasida badiiy barkamol asarlar yaratish bo'lsa, ikkinchisi, shunday asarlarni yaratadigan har tamonlama kamolga yetgan ma'rifatli insonni tarbiyalashdir. Laziz Azizzoda: "Adabiyotimizning yorqin yulduzlaridan Oybek, Uyg'un, Abdulla Qahhor va Shayxzodaga o'xshash shoir va yozuvchilarimizning

asarlari qiziqishimizga Cho'lpon, Fitrat, Julqunboy, Xurshid, G'ayraty, Elbek kabi shoir va muharrirlarning asarlari birinchi bo'lib yo'l ochib berdi",-degan edi. Oybek esa "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1927-yil 17-may sonida Ayn (Olim Sharafid dinov) ga javoban yozgan maqolasida: "Cho'lpon yangi adabiyotda yangi narsalar yaratdi. Muvashshah adabiyot o'rniga bu kunning badiiy zavqig'a yarasha yoqimli, go'zal she'rlar o'rtag'a chiqardi. Bugungi yosh nasl uning sodda tilini, totli uslubini, texnikasini ko'p sevadi, undan ko'p go'zalliklar oladi"-deya yozgan edi.

"Qo'lim qaltirasa ham, yuragim o'ynasa ham, qudratim yetmasa ham o'sha "Sharq va G'arb o'rtasidagi oltin ko'prikn" olamga tanitmoqchi bo'ldim".- R Toxxur.

R. Toxxur ijodida jahon va bengal adabiyoti an'analari birlashganligini eslasak, Cho'lpon maqsadlari yanada oydinlashadi. U o'zining bu orzulariga qisman bo'lsa-da erishdi. U ham o'z navbatida jahon va o'zbek adabiyotiga qurilgan oltin ko'prikn bo'ldi. Shu o'inda o'qituvchi I A Karimovning "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" asaridagi **".... chorizm mustamlakasi davrida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jaded bobolarimiz Mahmud xo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar fidoyi insonlarning o'z shaxsiy manfaati, huzur- halovatidan kechib, el-ulus manfaati yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalqan oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi"**¹ fikrlari bilan bog'lasa, o'quvchilarda milliy erk va g'urur tuyg'usi shakllanib, ular mardlik va nomardlikni farqlashga, yurt ozodligi yo'lida jon fido etgan insonlarni qadrlashga o'rganadilar.

Professor N.Karimov aniqlagan ma'lumotlarga ko'ra Cho'lpon o'zbek xalqini ma'rifiy qaloqlikdan olib chiqishga bel bog'lagan jadid shoirigina emas, balki Andijonda Turkistonni chor Rossiyasi bosqinidan xalos qilish maqsadida tuzilgan yashirin tashkilotning a'zosi ham bo'lgan.²

Shoir 1917 yil Fevral va Oktabr to'ntarishlarini katta umidlar bilan qarshi oldi. 1917 yil noyabirida tuzilgan Turkiston Muxtoriyati hukumatini olqishladi. Cho'lpon muxtor hukumatini olqishlabgina qolmay, uning "Ozod turk bayrami" degan madhiyasini ham yozadi. 1921 yilda "Milliy ittihad" yashirin tashkiloti (1918-1926) ning rahbarlari qamoqqa olindi. 1929-1930 yillarda esa yuzlab o'zbek ziyolilari, sud va prokuratura xodimlari aksilinqilobchi va millatchi unsurlar sifatida qamaldilar. Cho'lpon singari yurtparvar va elparvar kishilar Davlat siyosiy boshqarmasi-GPU ning nazorati ostida yashashga majbur bo'ldilar.

¹ Karimov. I. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat",2008,49-bet.

² Karimov.N. Cho'lpon. Adabiyot,11-sinf uchun darslik. T.: "O'qituvchi", 2004,125-bet.

Cho'lpon ijodini o'rgatishda uning ham jadid adabiyotining boshqa namayonda lariga xos bo'lgan muhim bir xususiyat- omma bilan bevosita muloqatda bo'lish, ulusga o'z g'oyalarini singdirish, ortidan ergashtirish maqsadida teatrdan unumli foydalanganini hisobga olish kerak. Shoir shaxsiyati va ijodiy yo'li bo'yicha manashu ma'lumotlar berilgach, she'rlar ning tahliliga o'tish mumkin. Cho'lponning **"Qalandar ishq"** she'rini o'rganishda o'qituvchi avval she'rni yoddan ifodali o'qib beradi. So'ng o'quvchilar e'tibori "Qalandar" so'ziga qartiladi. Bu so'z bilan bolalar Mashrab ijodini o'rganish davomida tanishganlar. Tahlilda ana shu tushunchaga tayanish maqsadga muvofiq. Qalandarona ishq egalarigina bu ilohiy tuyg'uning ko'lamini, zalvorini angelaydi:

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,
Asrlik tosh yanglig' bu hatrlik yo'lda qotdim-ku.
Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik to'lqini bordir,
Halokat bo'lg'usin bilmay qulochni katta otdim-ku.

Ikkinchi baytda shoir ishqning oshiq ko'ngillarni o'ziga ohangrabodek tortishini "karashma dengizi" iborasi orqali ifodalaydi. Bu dengizga tushgach ko'rdiki, u oshiqni erkalatadigan "nozlik to'lqin" dangina iborat emas ekan. Bundan bexabar oshiq "qulochni katta ot" ib ishq dengiziga kirdi. Muhabbat dengizi beparvo oshiqni qa'riga tortib ketadi.

Ajab dunyo ekan bu ishq dunyosi ayo do'stlar,
Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku.

Bu baytlarida "bu dunyo" ga munosabat, keyingi baytlarida bulbul obrazi, dunyoni qalandarona kezish va boshqalar o'quvchiga tanish an'anaviy tasvirlardir. Oshiq intilayotgan ma'shuqani botiniy ma'noda Ollohga, zohiriy ma'noda insonga-ayolga nisbat berish mumkin.

Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar,
Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.

Cho'lponning shaxsiyati, orzu-intilishilaridan kelib chiqib uning ishqini erk ozodlikka muhabbat sifatida talqin qilish ham mumkin.

Bu she'r yuzasidan savol va topshiriqlar bajariladi.

1. Muhabbatning keng saroyida yo'lini yo'qotgan oshiq holati ifodasini sharhlang.
2. She'rning uchunchi baytidagi "u" va "bu" dunyolar ma'nosini izohlang.
3. So'ngi misra mazmunini sharhlang, "Quyosh" timsoli ma'nosini toping.

Xalqparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ulari Cho'lponning **"Ko'ngil"** she'rida teranroq ifodalgan. Bu she'rda olg'a surgan g'oyani kuchaytirib, unga kurashchanlik va hayqiriq ruhini olib kiradi:

Ko'ngil, sen bunchalar nega

Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen buncha sustlashding?

Bu misralarda shoir "kishan" timsoliga murojaat qilish bilan ko'ngil erki masalalariga ijtimoiy ma'no yuklaydi. Shoir atrofida yuz berayotgan voqea-hodisalarni mushohada qilib, odamlardagi umumiy kayfiyatni o'rganib o'zi ko'zlagan maqsadning tobora uzoqlashib borayotganini his qiladi. Cho'lpon shu xil umidsizlik, avvalo, o'z dilida g'imirlagan umidsizlik bilan olishib yashagandek. She'r 1922 yilda, mamlakatimiz chorizimdan so'ng, sho'rolar tomonidan qayta istilo etilgan vaqtda yozilgan. O'qituvchi shu o'rinda o'quvchilardan bu paytda ijtimoiy davr qandayligini so'raydi. Garchi she'r qahramonning ko'ngilga nisbatan ichki nidolari shaklida ifodalangan bo'lsa-da, uning tub asosida xalqqa xitob bor. Fikr misrama-misra rivojlanib boradi:

Tiriksan, o'lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsen,
Kishan kiyma,
Bo'yin egma,
Ki sen ham hur tug'ulg'onsen!

Borgan sari avjilanayotgan umidsizlik hurujlariga zo'r bilan dosh berib turgan shoirning hayqirig'i nafaqat o'zgalarga, balki eng avval uning o'ziga, o'z ko'ngliga qaratilgandir.

"Ko'ngil" she'ri davr mahsuli o'laroq shoirning o'z zamondoshlariga qarata aytgan dardli xitobi va she'r qanday maqsadda bo'lgan bo'lsa, shunday tushuniladi.

She'rni she'r yozilgan davr muhiti yetiltirdi. ¹ She'rga singdirilgan dard-ozodlik qayg'usi bilan ulg'aydi.

Cho'ponning 1921 yilda yozilgan "**Yong'in**" she'riga "**Talanmagan, yiqilmagan yer yo'q.Go'daklar nayza boshida.....(xabar)**", -degan yozuv oldso'z qilib olingan. Bu xabarda ifodalangan dahshatli voqealar o'sha yillarda chindan ham ro'y bergan. Turkiston yerlari talangan, dushmanlar go'daklarni nayza uchiga ilganlar. Cho'lponday shoir bu tusdagi bosqinchilik, zo'rlik,qonxo'rlikka indamay qarab turolmas edi.She'r shunday qonli voqealarga otashin shoirning isyoni o'laroq tug'ilgan.

Nega menim qulog'imda tun va kun
Boyqushlarining shumli tovushi baqirar?
Nega menim borlig'imga har o'yun
Va har kulgi og'u separ, o't qo'yar?

¹ Hamdamov.U. Badiiy tafakkur tadriji. T.: "Yangi asr avlodi". 2002, 21-bet.

“Yong’in”ning badiiy qudrati shundaki, undagi iztiroblarni yuzaga keltirgan voqealar tashqaridagi hodisalar tarzida berilmaydi, ular shoirning ichida, ruhiyatida kechadi. Shuning uchun ham unda yalang’och chaqiriq, undov, nafrat emas, ilojisizlikdan tug’ilgan adoqsiz anduh borligiga o’quvchilar e’tibori qaratiladi:

Ko’nglim kabi yiqiq uylar, qishloqlar
Boyqushlarga buzuv ko’ksin ochganmi?
Ota-ona, tanish-bilish, o’rtoqlar
Yurtni tashlab tog’ va toshga qochganmi?

Keyingi baytda g’amning ko’lami, iztirobning miqyosi yanada ortadi. Chunki tasvirning qamrovi kengayadi. Birinchi bantda shoir o’z atrofidagi holatni tasvirlagan bo’lsa, endi butun o’lkada shu ahvol ekanini ta’kidlaydi:

Shunday katta bir o’lkada yonmagan,
Yiqilmagan, talanmagan uy yo’qmi?
Bir ko’z yo’qmi qonli yoshi tonmagan,
Butun ko’ngil umidsizmi, siniqmi?

Birinchi bandning birinchi misrasi bilan ikkinchi bandning so’ngi misrasiga o’quvchilarning alohida e’tibori tortilishi kerak.

Shoir ko’ngil siniqligini takror-takror tilga olishi bejiz emas. Vayron bo’lgan o’lkani butlasa, yondirilgan uyni tiklasa, talangan ro’zg’orni to’kis qilsa bo’ladi. Lekin sindirilgan ko’ngilni davolash mushkul. Shuning uchun ham shoir g’amga botgan.

Qulligi ko’ngliga ko’chgan millat hech qachon ozod bo’lolmaydi. Ko’ngli qul odam ozodlikka loyiq emas. Shoir g’amlarining chegara bilmasligi shundan. Agar oldingi baytlarda natija tasvirlangan va shoir qayd etuvchi maqomida bo’lsa, keyingi bandda u jarayonni aks ettiradi. Dushmanning yovuzligi chegara bilmasligini nafrat bilan ifoda qiladi:

Qilichlarning tillarida qizil qon
Buloqlarning suv kabi toshdimi?
Yalang bola, yalang go’dak-ma’sum jon
Nayzalarning boshlaridan oshdimi?.....

O’qituvchi she’rning old so’zida ham va nihoyat uchinchi bayt so’ngida ham go’daklar tilga olinayotganiga bolalar e’tiborini tortishi kerak. Bu shunchaki xabarda keltirilgani sababli yoki dushmanlar yovuzligini bo’rttirish uchun qilingan emas. Shoir dushmanning maqsadi o’lkaning kelajagini yo’qotish ekaniga, unga qarshi turilmasa, o’nglanmaydigan halokat ro’y berishiga ishora qilgan.

Shoir bu she'rdagi bandlarning qofiyalanish yo'sini, unda foydalanilishi lozim san'atlar to'g'risida o'ylamaydi, u qonli hayot manzarasiga samimiy yurak munosabatini ifoda qiladi.

Cho'lpon yovni la'natlamaydi, uni yo'qotishga chaqirmaydi. Hattoki undan yozg'irmaydi ham. Chunki yov-yo'q. Dushman-bizga madaniyat olib keladigan "do'st" ning o'zginasi. Do'stni dushmandan ajrata olmagan millatga yov hojat emas. U o'ziga o'zi dushmandir. She'r achchiq kinoya tomchilab turgan bayt bilan tugallanadi:

Keng yaylovga o'tmi ketdi, yondimi?

"Madaniyat" istagiga qondimi?

She'r kishida og'ir taassurot qoldiradi, uni o'ylashga undaydi. Odam ruhiyatining eng yashirin qatlamlariga kirib boradiki, uning badiiy qudrati ham, ijtimoiy ahamiyati ham shundadir.

Cho'lpon 1922 yilda yozgan "**Vijdon erki**" she'rida zulm vahshati va erk qudratini kuylaydi. She'r mazmunga tomomila zid keladigan mayin undov bilan boshlanadi:

Ay tutqinlar, ay ezilgan,

Ay qiylangan, yo'qsil ellar,

Ay umidsiz, ay chizilgan

Dor oldiga Oppoq dillar!

Zulmning vahshatini sezgan kuchlarga murojaat qilar ekan, Cho'lpon zolimlardan yorug'lik kutish bekorligini ta'kidlaydi. Shu bois shoir "qiynalgan yo'qsil ellar" bilan "dor oldiga chizilganlar" ga : "**Bo'rilardan omon kutmak Tentaklarning ishidir ul!**"-deydi. Kuchni kuch bilan yengish, qarshilikni yanchib o'tish kishini saodatga eltadi deb biladi.

Shoir insoniyatning tarixiy tajribasiga tayanib, zulmning qudratli kuch ekanligini qayd etadi. Lekin Cho'lponda ishonch borki, har qanday zulm avjiga yetganida ko'klarni yiqitish mumkin bo'lganidek, o'zini ham xarob etadi:

Zulm oldida har bir narsa,

Ehtimolki bo'yin egar.

Agar zulm avjiga kelsa,

Ko'k boshi-da yerga tegar.

E'tibor qilinsa, baytning uchinshi-to'rtinchi misrasi ikki hil ma'no tashishi anglashiladi. Birinchi ma'nosi –zulm avjiga chiqsa, osmonni ham bo'ysindiradi. Ikkichi ma'nosi-zulm avjiga chiqanidan so'ng uning osmonlarga yetgan boshi "yerga tegadi", ya'ni paymol bo'ladi. She'rning so'ngi bandi o'quvchini o'yga toldiradi. Chunki undagi ifoda, bir qarashda, mantiqsizlikday tuyuladi:

Hayvonlarga, insonlarga

Zolim ega bo'lmay qolmas,

Faqat erkin vijdonlarga

Ega bo'lmoq-mumkin emas.

Zolimda qudrat bor. Shu bois "hayvonlarga, insonlarga Zolm ega bo'lmay qolmas". Lekin so'ngi ikkilik bir qarashda oldingi misralarini inkor etganga o'xshaydi. Bu o'rinda mantiqsizlikka yo'l qo'yilganday tuyiladi. Holbuki, she'ning butun yashirin ma'nosi anashu "mantiqsizlik" zahiriga jo qilingan. Cho'lponning nazarida erkin vijdonga ega bo'lmaganlar, garchi inson sanalsalar-da, hayvondan farq qilmaydi. Erkin vijdon egasi bo'lgan chin odamni esa, yengish, uni zabt etish, bo'ysundirish mumkin emas. She'ning sirli jihati, kutilmagan ma'nosi ayni shu yerda.

Jamiyat o'tish davrini kechirayotganda vaziyat shu qadar tez o'zgaradiki, buni inobatga olmay turib, o'sha davrda yaratilgan badiiy asarlarni to'g'ri tushunish also mumkin emas. Chunonchi, Cho'lpon 1921 yilda "Buzilgan o'lkaga" she'rida bosqinchilarga bo'lgan munosabatini ochiq aytgan va xalqni kurashga undagan. Oradan bir yil o'tib, 1922 yilda e'tiboran uning she'rlaridagi oshkora nafrat birmuncha susaygan. 1923-yildan, "bosmachilik harakati" shiddati pasaya boshladi. Buning birinchi sababi harakat rahbarlari o'rtasida ahillik yo'qligi, harakatning umumiy yo'lga ega emasligi edi. Ikkinchidan, ozodlik harakati jangchilari ehtiyoj tufayli usiz ham qashshoq xalqqa ozor bera boshladilar. Uchinchi sabab shu bo'ldiki, sho'ro askarlari atay "bosmachilar" kiyimini kiyib, qishlog'-u shaxarlarni g'orat qildilar, ayollarni haqoratladilar. Natijada, xalq "bosmachilardan" bezdi va ularni quvvatlamay qo'ydi. Shuning uchun ham Cho'lponning bu yillardagi she'rlarida oldingi jo'shqinlik, kurashchanglik, safarbarlik sezilmaydi.

O'qituvchi bu jarayonda o'quvchilar fikrini ham tinglab koradi. Bu darsda quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalansa bo'ladi.

O'quvchilar beshta guruhga bo'linib, "Qalandar ishq", "Ko'ngil", "Kishan", "Yong'in", "Vijdon erki" she'rlari mazmuni bilan tanishdilar. Ya'ni har bir guruhga kompyuterda terilgan she'r matni beriladi. Guruhlar o'zlariga berilgan she'riy asarning mazmuni bilan tanishib chiqqanlaridan so'ng guruhdagi har bir o'quvchi o'zi tanishib chiqqan she'rning mazmuni, asosiy g'oyasi (ishqiy, muhabbat mavzusida yozilganligi, Cho'lponning orzu- intilishlaridan kelib chiqib uning ishqini erk, ozodlikka muhabbat sifatida ta'lqini, kurashchanlik va hayqiriq ruhidaligi, vijdon erkinining qudratini kuylaydi), uslubi (lirik janr), badiiy ifoda vositalari (nozlik to'qin, temir barmoqlarning dog'i...., ay umidsiz, zulm avjiga kelsa, ko'k boshida) bilan tanishib chiqdilar. Mazkur metodning qo'llanishi qisqa fursat ichida bir necha she'riy asar, ulkan mavzularning sinf o'quvchilari tamonidan chuqur o'zlashtirilishi uchun zamin yaratadi.

Shu bilan birgalikda **“Viktorina”** tashkil etish mumkin. Darsning ushbu bosqichida o’quvchilar besh guruhga bo’linib, ularning e’tiboriga kuyidagi savollar havola etiladi. Berilgan savollarga eng ko’p javob bergan guruh rag’batlantiruvchi ballarni qo’lga kiritadi.

1. “Qalandar ishq” janri, mavzusiga ko’ra qanday she’r?
2. Adib “Yong’in” she’rida ijtimoiy vokeylikni yoritishda qanday badiiy vosita yoki tushunchalardan foydalangan?

3. Adib talqinida ifoda etilgan:

Faqat erkin vijdonlarga

Ega bo’lmoq-mumkin emas, misrasining mohiyatini qanday tushuntirsa bo’ladi?

4. Shoir “Kishan” she’riga nima uchun aynan shunday nom qo’ygan?

5. Adib “Ko’ngil” she’rida zulm –zorovonlikning omonatligini qanday tasvir etgan?

Dars yakunida guruhlar hamda faol ishtirok etgan o’quvchilarning javoblari baholanadi.

Dars jarayonining bunday shakl, usul va vositalar asosida tashkil etilishi o’quvchilar tamonidan dars materiallarining puxta o’zlashtirilishini ta’minlash bilan birga ularda mustaqil va erkin fikr bildirish, o’z qarashlarini ilgari surish, ularni dalillash, shuningdek, tengdoshlari tomonidan bildirilayotgan g’oyalar mohiyatini tahlil etish, ularni mazmunan boyitish, umumiy xulosalarga kelish ko’nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Dasturda Cho’lponning **“Kecha va Kunduz”** romanini o’rgatish uch soatga mo’ljallangan. Darsdan ko’zlangan maqsad Cho’lpon ijodi, hususan, “Kecha va Kunduz” romanini o’rganish orqali o’quvchilarni millatparvarlik, xalqparvarlik, erksevarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy istiqlol g’oyalarini kamol toptirish hamda mustaqil fikrlash ko’nikmalarini o’stirishdir.

Cho’lpon 1934- yilda yaratilgan “Kecha va Kunduz” romani badiiy saviyasi yuksakligi, obrazlar tasvirining mukammalligi bilan adib ijodining cho’qqilaridan hisoblanadi. O’qituvchi roman to’liq matnining o’quvchilar tamonidan o’qib chiqilishiga erisha olsa, mashg’ulot samaradorligi yuqori bo’ladi. Shunda tahlil teran ma’no kasb etadi, o’spirinlar har bir timsolning xarakter-xususiyatini yaqqolroq bilib olish imkoniga ega bo’lishadi. Hamda asardan kelib chiqadigan ijtimoiy-estetik ma’noning salmog’i ortadi. Buning uchun o’qituvchi darslikdagi parcha bilan kifoyalanmay asarning boshlanish qismidan besh betlik, Zebining qo’shiq aytishi aks etgan o’rindan besh betlik, so’ng o’qituvchining o’ziga eng qiziq tuyilgan joyidan besh-olti betlik parcha o’qib beradi. Ehtimol, romanni o’rgatishga ajratilgan birinchi soat shu bilan yakunlanar.

Cho’lponning tasvir qudrati ko’pchilik o’quvchilarni ortida ergashtirib ketadi va ular asarni to’liq o’qib chiqishadi. Shundan keyingi ikki soatni tahlilga bag’ishlay verish mumkin. Bunda

adabiy timsollarga tayanib ish ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda Zebi, Akbarali, Miryoqub, Razzaq So'fi, Enaxon va boshqa ko'plab obrazlarga xos xususiyatlar ochilishi, romanning badiiy xususiyatlari to'la namoyon bo'lishi mumkin.

“Kecha va Kunduz” romani 1936 yilda O'zbekiston Davlat nashriyoti tamonidan romanning birinchi qismi-“Kecha” alohida kitob holiday nashr etilgan edi. Romanning ikkinchi qismi “Kunduz” ning yozib tugallanganligi va nashrga topshirilgani haqida gaplar yursa-da, tasdiqlovchi hujjatlarga ega emasmiz.

Romanning nomlanishida S Husaynning tergovda bergan ma'lumotiga ko'ra, Cho'lpon “O'tmish to'g'risida yozypdi deb ayblamasliklari uchun romanni shunday-“Kecha va Kunduz” ikkiga bo'lishga majbur bo'lgan”ligini aytgan.¹

“Kecha”da mamlakatning qaro kunlarida, fuqaroning dard va hasratini o'z yo'li bilan yedirib yuborgan edi.

Asarga “Hamal keldi, amal keldi” maqoli epigraf qilib olingan. Adib bu bilan xalqning bahoriy kunlariga umid bilan qarayotganligiga ishora qilmoqda.

Darslikda berilgan dastlabki lavha –Poshshoxonning kechinmalari, qotillikka qo'l urushi, bunday qarorga kelishiga turtki bo'lgan omillar to'g'risida o'quvchilar o'ylab ko'rishlari lozim.

O'quvchilar timsollarning ruhiy holatini yanada oydinroq tasavvur qilishlari uchun o'qituvchi Zebining qanday qilib Akbarali mingboshi xonadoniga kelib qolganligi, bunda poshshoxonning ishtiroki tasvirlangan o'rinlarni o'qib berishi lozim bo'ladi. Poshshoxonning qiynalishi erini Zebidan qizg'anishi sababli emas, uni o'rtayotgan narsa to'ridan ko'ra go'ri yaqin mingboshining merosi. “Yaqinda ham Hakimjonga aytgan emish: “Men endi topdim baxtimni. Hammayog'im shuniki (ya'ni Zebini ki).boshqalarga besh-to'rt tanob yerni titikligimda o'tkazib berib, qo'lgan davlatim ni batamom shunga qoldiraman” Akbarali mingboshining ichida gap yotmasligi, oilada o'zini munosib tutmasligi, kaltafaxmliligi Poshshoxonni jinoyatga undadi. Bunda ayolning tabiatidagi ochko'zlik ham katta o'rin tutadi.

O'qituvchi shu lavha orqali mingboshi xotinlarining ma'naviy qiyofasini solishtirishga undashi lozim. Zebi ismi-yu jismiga monand ichki olami ham go'zal. Sultonxon hayotga qo'l siltagan, ko'ngilxushlik bilan hammadan, eridan, Poshsho xondan, hatto uni zo'rlab qari amaldorlarga uzatgan ota-onasidan o'ch olishni o'ylaydi, buni uddalaydi ham. U Poshshoxonga o'xshab tubanlashmagan, lekin Zebi kabi ma'suma ham emas. Tushib qolgan muhiti uni qabohatga sudraydi.

Cho'lpon Zebi obraziga xos tamonlar tasvirida, undagi samimiyat, odob, hayo, bolalik o'ylari, sho'xliklari bilan omuxta bo'lib ketadi. Razzoq Sofi qiyofasiga kelganda satirik qalam imkoniyatlaridan unumli foydalaniladi. Uning sovuq va hussizligi haqidagi fikrlarini rivojlantirib

¹ Quronov.D. Istiqlof dardi. T.: “Yangi asr avlodi”. 2000, 78-bet.

boradi. Zebi tabiatiga mos keladigan aravakash yigit O'lmasjon qalbidagi sevinch erkka intiladi. Ikki qalb o'rtasidagi ishq oshkora etilmaydi. Katta kundosh kenja kundoshdan o'ch olish maqsadida Zebini Akbarali mingboshiga olib berish rejasini tuzadi. Mingboshi Eshon ko'magida Razzoq so'fi roziligini oldi. Mingboshi tashqi qiyofasini adib chizar ekan, undagi salbiy sifatlarga diqqatni qaratadi. Uning ma'naviy olami ham tuban.

Yozuvchi aldamchi ishlardan bexabar bo'lgan Zebi olamidagi ichki o'zgarishlarni ko'rsatar ekan, u boshiga tushayotgan musibatdan bexabar. Poshshoxon tamonidan Zebiga atalgan zaxarli suv Akbaraliga nasib qildi. Erining qotili emasligini o'zidan boshqa hechkim bilmaydi.

Darslikda berilgan roman dramatizmini kuchaytirgan lavhalardan biri sud jarayoni tasviridir. O'zini himoya qila olmaydigan "haqiqat" Zebi tomonida edi. "Men o'ldirganim yo'q.... Bu aniq....Meni qo'yib yuboradilar.... Oyimning yoniga qaytaman...." Zebi mana shunday hayollar bilan band bo'lib turgan vaqtda sud tamonidan uning taqdiri hal etilayotgan edi. U shunchaki qotil emas, oq podshoga sadoqat bilan xizmat qilayotgan mingboshini o'ldirgan jinoyatchi edi. Gunohkor o'rniga boshqa odamni jazolash Rusiya qonuniga zid. Muallif sud jarayonidagi holatlarni ko'rsatish (Sud raisi Zebining yuzini ochishni aytadi) bilan insonning taqdiri, qadr-qimmat, sha'nini bir chaqaga aylantirayotgan zamon illatlarini ayovsiz fosh etadi.

Oллоh Zebiga nafis did, farosat, go'zal odob va iste'dod in'om etgan edi. Davr undagi bu fazilatlarni qadriga yetmadi, aksincha, Eshon, Poshshoxon, Miryoqub, Razzoq so'fi, Akbarali timsolida uni topadi.

O'qituvchi ko'ngli ham jismiday pokiza Zebiga o'xshagan odamlarga hayotda qiyin bo'lishiga, yaxshilik hech qachon osonlik bilan o'ziga yo'l topmasligiga bolalar e'tiborini tortgani ma'qul. Shuda qotil va siyosiy jinoyatchi sifatida sud qilinayotgan Zebining o'z taqdiri nima bo'lishini emas, balki uyga qanday yetib olishini o'ylab o'tirishi tasviri zamirida faqat soddalik. Savodsizlik, go'llik emas balki ko'ngli to'g'ri odamning samimiyati va ishonuvchanligi yotgani anglab yetiladi. Shu tariqa bolalar ezgulik hamisha asrashga, himoyaga muhtoj ekanligini tushunib yetishadi.

"Kecha va Kunduz" badiiy matnining asosiy qismida Vatan, xalq, millat dardidan uzoqda turgan (Akbarali mingboshi), shu yurt, xalq muteligini mustahkam saqla moqchi bo'lgan (Noib to'ra), manqurtlik psixologiyasini o'zida to'la mujassam etgan (Razzoq so'fi), oila, muhid iskanjasiga tushgan (Zebi, mingboshining xotin lari-Xadichaxon, Poshshoxon, Sultonxon) obrazlari turadi.

Mustamlakachilik siyosati, og'ir iqtisodiy shart-sharoit, muttelik Turkistonda yashovchi oilalar va ularning a'zolariga o'z hukmini o'tkazib bo'lgan. Romandagi Razzoq so'fi, Xolmat,

Saltanat, O'lmas kabi personajlar tirikchilikning og'ir yuki ostida ezilgan, jabirdiyda kishilar vakillaridir.

Dars davomida badiiy asar qahramonlarini o'rganish jarayonida **“Muammoli tahlil”** usulidan foydalanilsa bo'ladi. Bu usulda o'quvchilar asar matniga erkin yondashadilar, har bir timsol ruhiyatiga, yurak qatlamlariga chuqur kirib boradilar, ezgu xatti-harakatlariga ham nojoiz-noaxloqiy, salbiy xislatlarga ham befarq bo'la olmaydi. Ularni yoki ma'qullaydilar, yoki inkor etadi. Bu darsda “O'tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Kecha va kunduz”, “Qutlug' qon” romanlari asosida baxs-munozara tarzida o'tish mumkin. Tahlil jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini ifoda etishga undovchi savollar beriladi.

1. Yuqoridagi romanlar qahramonlari Kumush, Ra'no, jabrdiyda Gulnor va Ma'suma, dugonangizdek bo'lib qolgan Zebiniso o'z davrida yashab o'tgan tengdoshlaringiz bo'lib, ularning bir-biridan farqi nima?
2. O'sha paytda johil va mutaassib otalar hissiz-hyosiz mingboshilar yuzidagi niqobini adolat shamshiri bilan yirtib tashlashi mumkinmidi?
3. Taqdirdosh, bir-biriga qariyb zamondosh bu qahramonlar xatti-harakatlarida, ichki va tashqi dunyosida qanday ayricha, nozik farqlar mavjud?
4. Zebi, Kumush, Zaynablarning baxtsizligida o'zlarini ham aybi bormidi? Borligi taqdirda ham ular nobob va nochor muhit, notinch tuzmda o'z baxtlari uchun kurasha olarmidilar?
5. Ra'no o'z baxti uchun kurasha oldi, Zebida bu uchun nimalar yetishma di?

O'quvchilar o'z fikrlarini bildiradi.

Yuqorida qayd etilgan roman timsollarining tahlili jarayonida o'quvchilarning har bir qahramon taqdiriga qiziqishi, mustaqil ravishda tahlilga, ijodkorlikka intilishi ortib boradi. Shuningdek, ular badiiy asar timsollarini keng qamroviiy tahlil qilishga, mushohada yuritishga, shaxsiy fikrlarni asoslay olishga odatlanadilar. Buning uchun qo'shimcha badiiy va imiy adabiyotlardan foydalanishga intiladilar. Darsning uchinchi soatini quyidagi pedagogik taxnologiya va usullardan foydalanib o'tkazish mumkin.

Darsni o'qituvchi o'quvchilarni taxminan “Xalq”, “Erk”, “Vatan” deb nomlangan **uch guruhga** ajratish bilan boshlaydi. So'ngra o'quvchilardan o'z guruhlarining nornini sharhlashni, talab qiladi. O'quvchilar o'z guruhlari nomini mazmunidan kelib chiqqan holda, o'z tushunchalari va imkoniyatlari doirasidai tahlil qiladilar. So'ngra o'qituvchi yoki badiiy so'zga moyilligi bor birorta o'quvchi tomonidan asar matni o'qib beriladi.

Shundan so'ng dars quyidagi reja asosida tashkil etiladi:

1. Cho'lponning «Kecha va kunduz» romani yaratilgungacha bo'lgan ijodi.
2. «Kecha» yaratildi, «Kunduz»-chi?

3. Romanning mavzu doirasi.

4. «Kecha va kunduz» bizga nimalarni o'rgatadi? Reja bo'yicha o'quvchilarga shoirning «Kecha va kunduz» romani yaratilgunga qadar bo'lgan faoliyatini teskari test orqali sinaladi. O'quvchilar to'g'ri deb hisoblaganlarini «+» va noto'g'ri deb bilganlarini «-» belgilari bilan ko'rsatadilar. Test savollari guruhlarining har bir a'zosiga alohida-alohida, tarqatma material tarzida beriladi va to'g'ri javoblar o'qituvchi tomonidan yulduzchalar (Cho'lpon so'zining ma'nosidan kelib chiqib) bilan baholanadi. O'qituvchi sinfdagi o'quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqib savollar sonini ko'paytirishi ham mumkin.

«Xalq» guruhiga:

Cho'lponning she'riy to'plamlarini ko'rsating.

- | | |
|---------------------------|-----------------------|
| A. «Buloq» (+) | B. «Soz» (+) |
| V. «Ko'ngil! naylari» (-) | G. «long sirlari» (+) |

«Erk» guruhiga:

Shoirning ijtimoiy lirikaga mansub she'rlarini belgilang.

- | | |
|------------------------|---------------------------|
| A. «Yong'in» (+) | B. «Buzulgan o'lkaga» (+) |
| V. «Qalandar ishq» (-) | G. «Ko'ngil» (+) |

«Vatan» guruhiga:

Cho'lpon tomonidan tarjima qilingan asarlar nomini aniqlang.

- | | |
|------------------------|-----------------|
| A. «Boris Godunov» (+) | B. «Hamlet» (+) |
| V. «Feruza» (+) | G. «Makbet» (-) |

O'qituvchi o'quvchilarning birinchi shart bo'yicha bi-limlarni baholab bo'lgach, Cho'lpon ijodi she'riyat va publisistika bilan boshlangan bo'lsa-da, u nasriy va dramatik asar yozishda, tarjimonlik sohasida ham iste'dodini sinab ko'rgani, ijodidagi bu tajribalar uni «Kecha va kunduz» romanini yozishga undaganini malum qiladi. Shundan so'ng o'quvchilarga ikkinchi topshiriqni beradi. Bu topshiriq ' o'quvchilarning roman yaratilishiga doir bilimlarini aniqlashga qaratilgan.

«Xalq» guruhiga: «Kecha va kunduz»ning yaratilishiga nima turtki bo'ldi?

«Erk» guruhiga: Roman necha qismdan iborat? «Kunduz»ning taqdiri nima bo'ldi?

«Vatan» guruhi: Sizning tasavvuringizda agar H² yaratilsa, unda nimalar tasvirlanishi mumkin edi?

O'quvchilar bu savollarga darslik va qo'shimcha adabiyotlardan olgan ma'lumotlariga tayanib javob beradilar, shuningdek, o'z mulohazalari bilan o'rtoqlashadilar.

O'quvchilarning javoblaridan anglashiladiki, «Kecha va kunduz»da Zebi, Miryoqub, Akbarali (bu nomlar o'quvchilar javobida tilga olinadi) kabi timsollar bor.

Asarda bu qahramonlardan tashqari yana qanday obrazlar borligi «Aqliy hujum» usuli orqali aniqlanadi.

Har bir guruhga beshtadan savol beriladi:


1. «Kecha va kunduz» qachon yozilgan? (1934-yil)
2. U qaysi jurnalda bosilgan? («Sovet adabiyoti»)
3. Roman qaysi turga mansub? (Epik)
4. O'zbek adabiyotidagi birinchi roman? («O'tgan kunlar»).
5. Akbaralining uchinchi xotinining nomi? (Sultonxon)
6. Akbaralining beshinchi xotini? (Yo'q)
7. Choynakda aslida nima bor edi? (Kuchala)
8. Razzoq so'fi xotmini nima deb chaqiradi? (Fitna)
9. Poshshaxonning maqsadi nima edi? (Zebidan ham, ultonxondan ham qutulish)
10. «U agar haq yo'lini topsa bormi, noyob odam bo'ladi! Bu gap kim haqda? (Miryoyub)
11. Miryoyub uchrashgan jadid kim? (Sharafiddin)
12. Zebining onasi kim? (Qurbonbibi)
13. Eshonni kim o'ldirgan? (Razzoq so'fi)
14. Zebiga chiqarilgan hukm qanday? (Yeti yillik surgun)
15. «Zebining o'pishlah issiq... bo'lsa ham, n negadii uni o'likning... lablaridan olganday bo'lar...»
Gap kim haqida ketyapti? (Poshshoxon)

O'qituvchi savollarni stolga teskari qilib yoyib qo'yadi. Har bir guruhdan bittadan vakil chiqib, savollarni tanlab oladi. Topshiriqning bajalishi uchun ma'lum vaqt belgilaydi. Har bir guruh o'z vazifasini qancha tez va to'kis bajarganiga qarab baholanadi. Shundan so'ng asar tahliliga oid navbatdagi topshiriq beriladi. Bu topshiriqning sharti bo'yicha o'quvchilar asar mazmuni ustida ishlaydilar.

Asardan oltita parcha (har bir guruhga ikkitadan) ajratib olitib, guruhlariga havola etiladi. Har bir guruh o'ziga berilgan parcha-matn ustida birgalikda ishlaydi. So'ng romanning mavzu doirasi chiziladi. Parchalarda ilgari surilgan qarashlar parcha-matn mazmunidan kelib chiqilgan holda taxminan quyidagicha joylashtiriladi.

Muhabbat
mavzusi

Xotin-qizlar
qismati



Yuqoridagi tasvir bo'yicha o'quvchilarning bilimlari baholangach, ularning o'rganganlarini yanada mustahkamlash maqsadida ularga quyidagi savol-topshiriqlarni berish mumkin:

Zebining qismati nima bo'ldi? Bunga kim aybdor?

O'quvchilarga quyidagi javob variantlari taqdim etiladi:

Zebining qismati fojiali. Bunga Poshshshoxon aybdor;

- Zebi Akbarali mingboshi tufayli shu kuyga tushdi. U xotinboz bo'lmasa edi, shunday voqea ro'y bermasdi;
- Zebini chohga itargan otasi. U qizi baxtidan o'z e'tiqodini ustun qo'ydi;
- Zebining o'zi ham aybdor. U o'z haq-huquqi uchun kurasha olmaydi.

O'quvchilar javoblardan birini tanlashi mumkin. Bu topshiriqdan asosiy maqsad shu bo'ladiki, javob bergan o'quvchi nima uchun shu javobni tanlaganini, nega shunday deb hisoblashini asoslab berishi kerak. Bunda o'qituvchi lomonidan asar yuzasidan yakuniy, yagona xulosa ehiqahlmaydi, balki har bir o'quvchi o'z fikrida qoladi. Chunki idabiy ta'limda yagona badiiy xulosa bo'lmaydi. O'z fikrini aytib, uni asardan va hayotdan dalillar keltirib isbotlab bera olgan o'quvchininr haqiqati - uning badiiy asardan chiqargan o'z xulosasi hisoblanadi. Va bu xulosa o'qituvchi tomonidan ham, boshqa o'quvchilar tomonidan ham hurmatlanishi shart.

Shu tariqa o'z fikriga ega bo'lgan, o'z qarashlari uchun .kurasha oladigan barkamol shaxs shakllanadi.

O'quvchilarning xulosalari taxminan, Zebi - erksiz, himoyasiz xotin-qizlar timsoli ekanligi, u kundoshlik qismatiga, ko'pxotinlik musibatiga, aqidaparastlik, mutaassiblikka yo'l qo'yib berilgan davrning, millatning ovozini bo'g'ishga intilgan mustamlakachiik siyosatining qurboni bo'lganligi, umuman, roman g'oyasi vatanni sevishga, xalqni, millatni e'zozlashga, istiqlolning qadriga yetishga, uni asrab-avaylash uchun kurashga undashi haqida bo'ladi.

Mashg'ulot so'ngida har bir shart bo'yicha to'plangan umumiy ballar aniqlanadi va g'olib guruh nomi e'lon qilinadi. Uy vazifasi sifatida “«Kunduz» mening tasavvurimda “ mavzusida uy inshosi yozishni topshirish mumkin.

Dars jarayonining bunday shaklda tashkil qilinishi mavzuni chuqur va puxta o'zlashtirishga va o'quvchilarda erkin fikriash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Asar tahlili jarayonida o'zbekona milliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom, el-yurt ozodligi, milliy o'zlikni anglash g'oyalariga alohida urg'u berilishi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunni hayotga tatbiq etishning bir shaklidir.

XULOSA

“Kadrlar tayyorlasdh milliy dasturi”ning sifat bosqichida amalgam oshirilishi ko'zda tutilgan vazifalardan eng muhimi uzluksiz ta'lim tizimidagi o'quv muassasalarining faoliyatiga yangi pedagogic texnologiyalarni joriy etishdir, zamonaviy pedagogic texnologiyalar o'quv jarayonida kam jismoniy kuch va vaqt sarflab, yuqori natijalarni qo'lga kiritish imkonini beradi. Bu hujjatlarda o'quvchi shaxsi va uning ma'naviy kamoloti birinchi o'ringa chiqarildi. Ta'lim konsepsiyasi, standarti, dastur, darslik hamda metodik qo'llanmalar insonparvarlik yo'nalishiga solindi. Ular faqat mutaxassis tayyorlashga ems, balki sog'lom ma'naviyatli odam shakllantirishga xizmat qila boshladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov; **“Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz,avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlaydigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz”,** deb ta'kidlaydi.

Insonning o'zligi, o'z mohiyati dunyoga, tabiatga, odamlarga mehr-muhabbat asosida o'z olamini yaratib olishida, yaratganda ham haqiqat, ezgulik va go'zallik qonunlariga muvofiq bo'lgan olamni yaratishida namoyon bo'ladi, busiz ma'naviy yetuk insonni shakllantirib bo'lmaydi.

Adabiyot san'at sifatida inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, tafakkuri, ma'naviy dunyosini boyitishda eng kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

N.G'ulomova "...boshqa o'quv mashg'ulotlarda bilim berish ustuvor bo'lsa, adabiyotda bolaning ko'ngli bilan, tuyg'ulari bilan ishlanadi. Bola uchun adabiy jarayon, uning ilmiy-nazariy asoslari yoki qandaydir sanalarni yod olish muhim emas. Bu narasa umri davomida kerak bo'lmasligi ham mumkin. Unga shunday narsa berish kerakki, o'sha narsasiz bugun, hozir yashash mumkin bo'lmasin va shu bilganiga doimo uzoq yillardan so'ng ham qayta-qayta nigoh tashlasin", degan fikr bildirgan.

Adabiyot o'qitishning bosh yo'nalishi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilar ongiga badiiy asarning mo'jizakor ta'sir kuchini amaliy jihatdan ta'minlashga qaratilgan.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon badiiy adabiyotimizni shakllanishida o'zining buyuk xizmatlarini qo'shgan ijodkordir. Tarixda, sho'rolar davrida mustamlakachilik siyosati, kommunistik mafkura tazyiqi bilan Cho'lponni "xalq dushmani" qilib ko'rsatganligi, uning asarlarini o'qish, hatto nomini tilga olish taqiqlab qo'yilganligining guvohi bo'lamiz. Holbuki, Cho'lpon buyuk san'atkor sifatida yosh ijodkorlarga ustoz bo'lgan, ular o'zlarini Cho'lponning shogirdi deb bilganlar.

O.Sharafiddinov: "20-yillarda Cho'lpon she'rlari o'zbek poeziyasi rivojida yangi sahifa ochdi. O'sha paytlarda adabiyot olamiga endigina qadam qo'yayotgan Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Uyg'un kabi yosh shoirlar Cho'lponni o'zlariga ustoz deb bilib etagidan mahkam tutishdi. Cho'lpon shr'riyatiular uchun chinakamiga dorulfunun bo'ldi" deb yozgan edi. So'ngi yillardagina Sh. Turdiyev, N. Karimov, B.Do'stqorayev, M.Olimov, U.Dolimov, Z.Eshonova, D.Quronov, U.Sultonov kabi adabiyotshunoslarning harakati bilan Cho'lponning inqilobdan oldin va keyin chop etilgan asarlari muomalaga kira boshladi.

Cho'lponni nazariy tomondan o'rgangan bo'lsalar-da, amaliy tomondan o'rganganlar sanoqli. O'quvchilar uning asarlarini tilini tushunish, ichki hissiyotlariga oshno bo'lish, she'rlaridagi nozik tuyg'ularini ko'ra bilish uchun avvalo, o'qituvchi mahorati yuksak bo'lishi kerak. Tadqiqotimda shu masalalarga to'xtalib o'tdim. Bunda maktab adabiyot dasturi va darsliklarida Cho'lpon she'riyatining berilishini tahlil qildim va unga munosabat bildirdim. maktab adabiy ta'limida Cho'lpon ijodi, xususan, she'riyatini o'qitishning ilmiy-metodik xususiyatlarini ochib berishga harakat qildim, innovatsion texnologiyalardan foydalanish samarali natijalar berishini qator misollar asosida yoritib berdim.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Karimov.I. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. A.Qodiriy. O'tkan kunlar. T.: "Adabiyot va san'at",1994.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T.: " O'zbekiston", 2000.
4. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. T.: "Yangi asr avlodi", 2002.
5. Ismoil To'lak. XX asr o'zbek adabiyoti. Andijon-1993.
6. Karimov N. Cho'lpon.T.: "Sharq", 2003.
7. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. T.: "Ma'naviyat", 2004.
8. Quronov D. Istiqlol dardi. T.: "Yangi asr avlodi", 2000.
9. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. T.: "Sharq", 2004.
10. Solijonov Y. Zulmatdan nur qidirganlar. Toshkent-2007.
11. Cho'lpon Yana oldim sozimni. Toshkent-1991.
12. Sharafiddinov O. Istiqlol fidoyilari. T.: "Sharq", 1993.
13. Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash. T.: " Yozuvchi " , 1994.
14. Sharafiddinov O. Cho'lpon. T.: "Cho'lpon",1991.
15. Sharq mumtoz poetikasi. Majmua. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006.
16. Zunnunova A. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 1992.
17. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. T.: "O'qituvchi",2004.

MAQOLALAR

1. Egamberdiyeva F. Cho'lpon ijodini yangi pedagogik texnologiya asosida o'rganish. Til va adabiyot ta'limi. 2005, 3-son.
2. Erkaboyeva N. Yangilangan pedagogik fikrlarning mohiyati va uning ustuvor yo'nalishlari. Xalq ta'limi, 2005, 6-son.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. T." "Sharq", 2000.
4. Meliqo'ziyev M. Badiiy asr timsollarini muommoli tahlil qilish orqali o'quvchi shaxsiy nuqtai nazarini shakllantirish. Til va adabiyot ta'limi.2007.1-son.
5. Muhammedova Sh. Fitrat va cho'lpon erkin vaznning asoschilari. O'zbek tili va adabiyoti. 1999, 2-son.
6. Musayeva U. Abdulhamid Cho'lpon ijodini o'rganish. Til va adabiyot ta'limi. 2001, 4-son.
7. Oybek Cho'lpon.Shoirni qanday anglash kerak? Sharq yulduzi. 1989,6-son.
8. To'ychiyev U. Cho'lponning she'r tuzilishi. O'zbek tili va adabiyoti. 1998, 2-son.
9. Husanboyeva Q. Cho'lpon ijodidan bir dars. Til va adabiyot ta'limi. 2009, 11-son.
10. 7-sinf uchun adabiyot fanidan takomillashtirilgan DTS. Til va adabiyot ta'limi. 2007, 5-son.
11. 9-sinf uchun adabiyot fanidan DTS. Til va adabiyot ta'limi. 2009, 9-son.
12. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. T.:2010.
13. Yo'ldashev Q. va boshq. Adabiy saboqlar. 9-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. Toshkent-2006.